

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI
IV KURS KUNDUZGI BO`LIM BITIRUVCHISI**

Rajabova Mavjuda Boboqulovnaning

**«[Tur-jins] ma`noli so`z birikmalari va publitsistik nutq»
mavzusidagi**

**5 120100- Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozgan**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2015- o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

**NAZAROVA S.A.,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent**

Buxoro-2015

REJA:

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.

I bob. [Tur-jins] munosabati va soʻz birikmalari.

1.1. [Tur-jins] munosabatining soʻz birikmalarida ifodalanishi.

1.2. [Tur-jins] maʼnoli soʻz birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilishi.

II bob. [O^{b.k.} ~ O^{e.k.}]=SB qolipining publitsistik nutqda qoʻllanilishi.

2.1. Oʻzbek adabiy tilining vazifaviy uslublari toʻgʻrisida.

2.2. Publitsistik uslubning oʻziga xos va farqli jihatlari.

2.3. [O^{b.k.} ~ O^{e.k.}]=SB qolipi hosilalari va publitsistik nutq.

Umumiy xulosa.

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning tadqiq darajasi. Mustaqillikka erishilgan davr fani oldiga aniq vazifalar – zamonaviy ilmiy tadqiqot tamoyillarini yangilab borish, izlanishlar samaradorligini oshirish, yangi ilmiy yutuqlarni ta’lim tizimiga tatbiq etish, fan va ishlab chiqarish aloqadorligini mustahkamlash talablari qo’yilgan. Bu talablar o’zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichiga ko’tarilishi va ona tilining ilmiy-amaliy tadqiqiga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Yurtboshimiz Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida [1,83]: “O’zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o’rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog’liqlik til orqali namoyon bo’ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”, -deb ta’riflaydi. Ona tilimizning XXI asrdagi ilmiy tadqiqi asoslangan ilmiy metodologiya va nazariy asoslarni aniqlash zarur. Bu esa tilshunoslik fanida ilmiy bilish va lisoniy tafakkur darajasini belgilashga xizmat qiladi. Bugungi kunda o’zbek tilshunosligida formal, sistem-struktur, semantik va substansial tadqiq usullari shakllantirgan formal-grammatik, sistem-struktur, semantik va substansial ta’limotlar mavjudligi ayon haqiqatdir.

Til tizimi va qurilishini lison-nutq farqlanishi asosida tadqiq etgan substansial sintaksisning nazariy asoslari sintaktik ta’limotlar sirasida alohida o’rin tutadi. O’zbek tilshunosligida substansial nazariya sintaktik sath birliklari lisoniy mohiyatini aniqlash va anglash jarayonida qator yutuqlarni qo’lga kiritgan. Bu ta’limot sintaksisdagi ilmiy asoslarni o’zbek tili lisoniy-sintaktik sathining tadqiq manbayi – lisoniy-sintaktik qurilish qolipi (LSQ) bo’lib, bevosita kuzatishda berilgan so’z birikmalari va gaplar ma’lum lisoniy-sintaktik qurilish qolipining hosilalari sanalishi, shu bilan birga, lisoniy-sintaktik qurilish qoliplari so’z birikmasi va gap lisoniy-sintaktik qurilish qoliplariga bo’linishi, umuman, sintaktik sath birliklari til birligi sifatida lisoniy va nutqiy jihatlarning ichki ziddiyatidan iboratligi haqidagi nazariy xulosalar bilan yangiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikning dastlabki yillarida butun mamlakatimiz miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlari jahondagi ilg'or davlatlar tajribasiga tayangan holda tubdan yaxshilandi. "Ta'lim to'g'risi"dagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqilganligi fikrimizning dalilidir. Intellektual salohiyati yuqori, yuksak ma'naviyatli ijodiy tafakkur sohiblarini yetishtirish talabi davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlarni ko'plab chop ettirish zarur"ligini bildiradi. O'zbek tilining o'ziga xosligini aniqlash maqsadini davr talabi sifatida qabul qilgan substansial tilshunoslik hozirgi davrda til birliklarining nutqiy voqelanish imkoniyatlarini o'rganish bosqichiga yetdi. Chunonchi, so'z birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilishi, erkin birikish omillari va usullari, so'z birikmasini hosil qiluvchi lisoniy-sintaktik qurilish qoliplar masalalari tadqiq etildi. Shuni aytish kerakki, so'z birikmalarining substansial tahlilida so'z birikmasini hosil qiluvchi lisoniy-sintaktik qurilish qoliplar tizimini o'rganish, lisoniy-sintaktik qurilish qoliplar paradigmalarini belgilash va mazkur sintaktik qoliplarning nutqiy voqelanish imkoniyatlarini aniqlash muammolari o'z yechimlarini kutmoqda. Ayni paytda o'zbek tilshunosligida [tur-jins] ma'noli so'z birikmalarining nutqiy voqelanish imkoniyatlarini o'rganish zaruriyati substansial tahlildan pragmatik talqinga o'tish ehtiyoji mavjud. Bu ehtiyoj mazkur ishni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. So'z birikmalarini ma'noviy munosabatlar asosida tasniflash va ma'noviy tiplarini ajratish muammosi dolzarb bo'lib, ona tili ta'limida [tur-jins] ma'noli so'z birikmalari va ularning nutqiy voqelanishini o'rganish bilan aloqadordir. Malakaviy bitiruv ishi markaziga qo'yilgan [tur-jins] ma'noli so'z birikmalarining publitsistik nutqda voqelanishi muammosining o'rganilishi ona tili mashg'ulotlarida so'z birikmasi sintaksisini o'rganish bilan bog'liq chigalliklarni yechish, shuningdek, so'z birikmalarining substansial-pragmatik talqiniga tegishli masalalarni tahlil etish jihatidan dolzarb hisoblanadi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Malakaviy bitiruv ishining maqsadi o`zbek tilida [tur-jins] ma'noli so`z birikmalarining publitsistik nutqda voqelanishini o`rganishdan iborat. Shunga ko`ra, quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilangan:

- ona tilimizda so`z birikmalari [tur-jins] munosabatini ifodalashi hodisasini tavsiflash va [tur-jins] ma'noli so`z birikmalarini izohlash;
- [tur-jins] ma'noli so`z birikmalarining sintaktik qurilishini substansial talqin asosida tahlil qilish;
- [tur-jins] ma'noli so`z birikmalarining nutqiy imkoniyatlarini publitsistik nutq yordamida aniqlash;
- [O^{b.k.}~O^{e.k.}] qurilmali birikmalarining publitsistik nutqda qo`llanilishini tahlil qilish;
- publitsistik nutqda qo`llangan [tur-jins] ma'noli so`z birikmalarining tahlilini umumlashtirish.

Ishning tadqiq manbai. O`zbek tilida so`zlashuvchilar nutqida qo`llanuvchi [tur-jins] ma'noli so`z birikmalari ishning tadqiq manbayidir. [Tur-jins] ma'noli so`z birikmalarining nutqiy voqelanishini kuzatish va tahlil qilish uchun publitsistik asarlarga murojaat qilindi. O`zbek tilshunosligida so`z birikmalarining substansial (formal-funksional) va struktural talqiniga bag`ishlangan ilmiy asarlar va o`quv adabiyotlari ishning nazariy asosini tashkil etadi.

Ishning metodologik asosi va tadqiq usullari. Mustaqil davlatimizning milliy mafkurasi va ma'naviy asoslari negizida shakllangan ilmiy dunyoqarashning falsafiy asoslari va borliqda mavjud narsa-hodisalarning substansialligi, ziddiyatli ikkilangan tabiatga egaligini e'tirof etuvchi dialektik falsafa ishning metodologik asosi hisoblanadi. [Tur-jins] ma'noli so`z birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilishini aniqlash uchun substansial tilshunoslikning tahlil usullaridan foydalanildi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur malakaviy bitiruv ishida tahlil etilayotgan masalaning nazariy ahamiyati bosh kelishikda tobe bo`lak

mavqeyini egallaydigan otlar va hokim bo`lak mavqeyidagi egalikli otlarning o`zaro bog`lanishidan yuzaga keladigan so`z birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilishi va bu so`z birikmalarining nutqiy voqelanishiga xos ma`noviy xususiyatlarni tahlil qilish orqali belgilanadi.

Ishning natijalari o`zbek tilshunosligida so`z birikmalarining nutqiy pragmatik xususiyatlari, ya`ni [tur-jins] ma`noli so`z birikmalarining nutqiy voqelanish imkoniyatlarini o`rganish muammosini yechishga xizmat qiladi. Shu jihatdan nazariy ahamiyat kasb etadi.

Ta`lim tizimida ona tili darslarida “Sintaksis” bo`limini o`rganish va o`qitish maqsadida, shuningdek, “Uslubshunoslik” va “Pragmatik lingvistika” sohalarida [tur-jins] ma`noli so`z birikmalarining nutqiy imkoniyatlarini o`rganishda qo`shimcha manba sifatida ishning natijalaridan foydalanish mumkin.

Ishning jamoatchilik e`tiboridan o`tishi. Malakaviy bitiruv ishi mavzusi Buxoro davlat universiteti o`zbek filologiyasi kafedrasida muhokama qilinib, tasdiqlangan. Mavzu yo`nalishida “[O^{b.k.} ~ O^{e.k.}]=SB qolipi hosilalari va publisistik uslub” nomli va “Tobelanish usullari formal-grammatik talqinda” nomli ikkita ilmiy maqola e`lon qilingan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Malakaviy-bitiruv ishi kirish, ishning umumiy tavsifi, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, 61 sahifani o`z ichiga oladi.

I bob. [Tur-jins] munosabati va soʻz birikmalari.

Har bir davr fan va taʼlim zimmasiga muayyan vazifalarni yuklaydi. Oʻtgan asrning birinchi choragida ona tili taʼlimiga ommani yoppasiga savodxon qilish talabi qoʻlyilgan. Asrning ikkinchi choragida tilshunoslik oldida adabiy til meʼyorlarini ishlab chiqish vazifasi turgan boʻlsa, taʼlim zimmasida fanning bu boradagi yutuqlarini amaliyotga joriy etish va ommalashtirish ijtimoiy buyurtmasi turar edi [59,8]. Bugungi kunda ona tili taʼlimiga yuklatilgan ijtimoiy buyurtma nimadan iborat ekanligi oʻzbek tilshunosligi va uning oʻqitilishi muammolarini yechish uchun izlanayotgan tilshunos olimlarnigina oʻylatib qolmay, har bir ona tili oʻqituvchisi, shu sohaning boʻlgʻusi mutaxassisi va har bir ongli shaxsni oʻyga toldiradigan muhim masaladir. Negaki, XXI asrda taraqqiyot surʼatlari benihoya tezlashganligi, intellektual salohiyat, tafakkur dunyoda yashab qolishning asosiy sharti ekanligi, texnikaning misli koʻrilmagan darajada yuksalishi, maʼnaviyatning tamaddun garoviga aylanganligi bu davrning oʻziga xosligini koʻrsatadi. Bugungi fan va taʼlim oldiga qoʻyiladigan talablar globallashtirish davri, texnika asrida yashayotgan millatimiz vakillari, jamiyatimiz aʼzolarining ona tili bilan bevosita aloqador hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki yillarida butun mamlakatimiz miqyosida taʼlim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar oʻrgatish tizimlari jahondagi ilgʻor davlatlar tajribasiga tayangan holda tubdan yaxshilandi. “Taʼlim toʻgʻrisi”dagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqilganligi fikrimizning dalilidir. Intellektual salohiyati yuqori, yuksak maʼnaviyatli ijodiy tafakkur sohiblarini yetishtirish talabi qoʻyildi. Bu esa yurtboshimiz Islom Karimov taʼkidlaganlaridek, “Tilimizning oʻziga xos xususiyatlariga bagʻishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, oʻquv qoʻllanmalari, yangi-yangi lugʻatlarni koʻplab chop ettirish zarur”ligini bildiradi. Oʻzbek tilining oʻziga xosligini aniqlashni davr talabi sifatida oʻz oldiga maqsad qilgan substansial tilshunoslik hozirgi davrda til birliklarining nutqiy voqelanish imkoniyatlarini oʻrganish bosqichiga yetdi.

Tilshunoslik fanining maqsadi til hodisasining tabiatini aniqlash, mohiyatini anglash va tushuntirishdan iborat. Ona tilimizning turkona tabiatini aniqlash va uning mohiyatini anglash maqsadini amalga oshirayotgan o`zbek tilshunosligi Istiqlol sharofatidan mustaqil taraqqiyot yo`lidan bormoqda. O`zbek millati madaniyati, ijtimoiy tafakkuri tarixini o`z bag`rida avaylab, asrab kelayotgan va milliy ong, milliy o`zlikning lisoniy imkoniyatlarini o`z mohiyatida mujassam etgan tilshunosligimiz jahon tilshunosligi darajasiga yetishga intilmoqda. Bu intilishlar o`zbek tilshunosligida xilma-xil yo`nalishlar, ilmiy qarashlar yuzaga keltirgan. Negaki, tilning mohiyati kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, strukturasi va bu strukturani tashkil etgan elementlarning o`zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishlash prinsiplari kabi muhim masalalarni ilmiy o`rganishni, tilni har taraflama tadqiq qilishni talab qiladi. Fanimizda tilning qurilishi va uning birliklari talqinida bir-biridan farqli nuqtayi nazarlar va ta`limotlar mavjud. Ular tilning mohiyatini ochishga jiddiy urinishlar natijasida yuzaga kelgan. Bu ilmiy yo`nalishlar sirasida fanimizning taraqqiyotini yuksak bosqichga ko`targan o`zbek substansial tilshunosligi alohida o`rin egallaydi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning hayotga tatbiqi munosabati bilan bugun ta`limning turli bo`g`inlari Davlat ta`lim standartlari va dasturlarida o`z aksini topgan g`arb tilshunosligida o`zi ishlab chiqqan yangi ilmiy tushunchalarni qabul qildirayotgan o`zbek substansial tilshunosligi fanning sovet davri taraqqiyoti yutuqlariga tanqidiy yondashib, uni sovetizm ziddimilliyliги kamchiliklaridan ta`lim yagonaligi bahonasida milliy tillar qurilishi ilmiy talqinini bir xillashtirish milliy va rus tillari qurilishi ilmiy talkinlarini mumkin qadar o`zaro yaqinlashtirish) milliy tilning milliy ong tafakkur va mafkuraviy shakllantirishdagi ahamiyatiga e`tibor bermaslik va hatto, uni inkor etish kabilardan tozalab, til qurilishi ilmiy talqini va til ta`limi sohasida bozor iqtisodiyoti sharoitida erishilgan zamonaviy yutuqlar asosida tilshunoslikda va til ta`limida yangi ilmiy maktab sifatida shakllandi [49,35].

O'zbek tilshunosligida shakllangan ilmiy yo'nalishlarni tahlil qilgan olim Hamid Ne'matov substansial yo'nalishni "Bu tahlil usuli mohiyatan sovet formal tilshunosligi doirasida shakllangan o'zbek formal tilshunosligi bergan lingvistik talqinlariga tayanuvchi, lekin oldida tamoman yangi maqsad va vazifalarni qo'ygan yangi ilmiy maktabdir", deb ta'riflaydi [49,35].

O'zbek tili qurilishining sistemaviy tadqiqi va dialektik mantiq gnoseologik asoslarining metodologik birikuvi, yangi kesishuvi natijasida shakllangan formal-funksional tahlil kurtaklari fanimizda XX asrning 60-yillarida shakllana boshladi. O'zbek tilshunosligida yangicha tahlil va talqin usullarini izlash tilimiz tizimini yevropacha tahlil usullari bilan o'rganishning A.Fitrat, E.Polivanov, Munavvar Qori, Qayum Ramazon kabi fidoyilar boshlab bergan bosqichning F.Abdullayev, G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.N.Kononov, F.Kamolov, Z.Ma'rufov, R.Sayfullayev, U.Tursunov, S.Ismoilov, E.Fozilov, Sh.Shoabdurahmonov, Sh.Shukurov, A.G'ulomov va ularning yuzlab shogirdlari hamda izdoshlari tadqiqotlarida yuqori cho'qqilarga ko'tarilishi va o'zining mantiqiy nihoyasiga yetishi bilan bog'liqdir [59,3]. Shuning uchun o'tgan asrning 60-70-yillarida tilshunosligimizda yangicha tahlil va tadqiq usullariga qiziqish avj oldi. Ma'lumki, sistematik tahlil usullarining ilk tushunchalarini olib kirish va ularning ommalashishiga A.Abdulazizov, Sh.Rahmatullayev, Sh.Qo'chqortoyev kabi olimlar o'z munosib hissalarini qo'shdilar.

Keyinchalik sistem-struktur tilshunoslikning turli maktab va yo'nalishlari tahlil usullarida o'zbek tili qurilishini tadqiq etish ommalasha bordi. Jumladan, o'zbek tilining sistem tahlili A.Berdialiyev, O.Bozorov, N.Mahmudov, H.Ne'matov, A.Nurmonov, R.Rasulov, R.Sayfullayeva kabi yirik tilshunoslar hamda ularning izdoshlari – M.Abuzalova, Sh.Akramov, B.Mengliyev, I.Madrahimov, D.Nabiyeva, G.Ne'matova, L.Ne'matova, Sh.Orifjonova, L.Raupova, M.Saidova, Sh.Shahobiddinova, Z.Yunusova, B.Qilichev, M.Qurbonovalarning ishlarida ko'zga tashlanadi. Bunday tadqiqotlar ichida rus turkiyshunos olim S.N.Ivanov boshlab bergan formal-funksional tahlil usuli

so`nggi yillarda alohida ilmiy yo`nalish sifatida shakllanganligini qayd etish lozim.

Chunonchi, bu ilmiy yo`nalish o`zbek tili va umuman, til tizimi qonuniyatlarini kashf etgan olim H.Ne`matov ta`biri bilan ifodalanganda: “C.N.Ivanov 1960 yillarda asoslagan bosh tamoyili struktural tahlilni aniq dialektik metodologik tamoyillar asosida takomilllashtirib, tilda tafakkurni shakllantiradigan va rivojlantiradigan, nutqiy muloqotda minglab shakl va ko`rinishlarda voqelana oladigan, har bir shakli o`ziga xos maqsad va vazifaga ega bo`lgan imkoniyatlar xazinası sifatida yondashish bo`lib, o`zbek substansial tilshunosligini rivojlantirishga qaratilgan edi” [49,36].

Shunday ekan, formal-funksional tahlil yo`nalishi tadqiq usullari bilan ish ko`rgan hozirda yaxlit “O`zbek substansial tilshunosligi” nomi bilan ommalashayotgan lisoniy ta`limotda o`zbek tili barcha sath birliklarining lison-nutq qarama-qarshiligida umumiy lisoniy mohiyati kashf etilib, til tizimidagi o`rni belgilangan, o`zbek tili sistem-struktur talqini nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Demak, o`zbek substansial tilshunosligi oldida turgan barcha ilmiy muammolar hal qilingan, substansial tadqiq natijalari e`lon qilinib, amaliyotda tatbiq etilayotgan ekan, endi o`zbek tilining substansial talqini nihoyasiga yetgan deb xulosa chiqarish noo`rindir.

Negaki, bilish jarayoni cheksizdir, yangi-yangi yo`nalishlar bu manbaning yangi-yangi qirralarini ochib boraveradi. Oldinda, ulug` kelajakda, faqat tilshunosligimizda, hali yuzlab hozir tasavvur qilib bo`lmas yangi yo`nalish va oqimlar shakllanadi. Ularning har birida lisoniy birlikning tabiati turlicha talqin etiladi.

Ilmiy tadqiq metodologiyasi har qanday tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Shuning uchun ilmiy tadqiq metodologiyasi masalasiga alohida e`tibor qaratishni lozim deb topdik. Negaki, metodologik asos ilmiy tadqiqotning poydevorini tashkil etadi. Bu masalada professor H.Ne`matovning quyidagi fikrlariga qo`shilmaslik mumkin emas: “Metodologiya tadqiqotchining

tayanch nuqtasi, obyektga qanday yondashishi, unda nimani ko`rishi, uni qanday talqin etishi, uning tamal toshlari, o`lchov birliklaridir. Metodologiya tadqiq manbayining umumiy xususiyatlari va birliklarini belgilab beradi. Mana shuning uchun davr talabi – bilimdon ijrochini emas, ijodiy tafakkur sohibi bo`lgan tadbirkor shaxsni tarbiyalash zarurati bilan substansial tahlil usullari o`zbek amaliy tilshunosligiga kirib kelar ekan, eng avvalo, o`zining metodologik asoslarini, lisoniy tizim tabiati va birliklarini talqin etish tamoyillarini ommaviy (qarang: «Ўқитувчилар газетаси» 1987-yil 11 oktyabr, 1988 yil 5 mart, 1989-yil 3 yanvar) va ilmiy matbuotda (qarang: «Ўзбек тили ва адабиёти» jurnali, 1987-yil, 3-son) e`lon qildi” [49,37].

Tadqiqot kun tartibida belgilangan masalalarni tahlil qilish uchun metodologik asos sifatida o`zbek substansial tilshunosligi tahlil usullari va tamoyillari tanlangan. Shunday ekan, fanimizda shakllangan substansial tahlil usullari va tamoyillarini izohlashga ehtiyoj seziladi. Hozirgi o`zbek substansial tilshunosligining rivojlanishi Buxoroda bir necha yil ishlagan leningradlik turkolog professor Sergey Ivanov (1922-1999) nomi bilan bog`liq. O`zbek fanida bu yo`nalish formal-funksional, zotiy tilshunoslik deb ham nomlanadi. Mazkur yo`nalishdagi ilk tadqiqot S.Ivanovning 1959-yilda Leningradda e`lon qilgan “Очерки по синтаксису узбекского языка (форма на -ган и ее производные)” asaridir. Keyingi yillarda olim bu ishida boshlagan tadqiqotlarini o`zining bir qator maqolalarida chuqurlashtirdi va doktorlik dissertatsiyasida umumlashtirdi¹. O`zbek substansial tilshunosligining keyingi taraqqiyoti va hozirgi kunda O`zbekistonda ommalashishi S.Ivanovning shogirdi – buxorolik olim Hamid Ne`matov va u yaratgan lingvistik maktab bilan bog`liq². O`zbekiston mustaqilligigacha o`zbek substansial tilshunosligi fandagi bir oqim bo`lib, uning keng ommalashishiga imkoniyat yo`q edi. Chunki Sho`ro Ittifoqida ta`lim tizimining yagonaligi butun Ittifoq bo`yicha ilmiy talqinlarning bir xilligini talab

¹ С.Н.Иванов. Родословное древо тюрков Абул-Гази-Хана. Грамматический очерк. (Имя и глагол). Ташкент: Фан, 1969.200 стр.

² М.М.Курбонова. Ҳозирги замон ўзбек тили. Гап синтаксиси учун материаллар. Тошкент. Университет. 2002.

qilardi; grammatik talqinlar rus va milliy tillardagi ta'lim muassasalarda bir xil edi. O'zbek substansial tilshunosligining talqinlari esa rasmiy rus tilshunosligidan keskin farq qiladi. Shuning uchun o'sha davrda ta'lim tizimiga tatbiq etilishi mumkin emas edi. 1991-yildan keyin o'zbek tilshunosligi, jumladan, o'zbek tilini ona tili sifatida maktab va oliygohlarda o'qitish mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tdi; o'zbek tili bo'yicha maktab va oliygoh dasturlari o'zbek substansial tilshunosligi talqinlari asosida tuzildi³, bu yo'nalishning ommalashishiga asos bo'ldi. O'zbek substansial tilshunosligining o'zagini Praga strukturalizmidagi lison-nutq, lisoniy birlik, nutqiy birlik tushunchalarini dialektikaning *umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab* (UMIS) va *yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat* (YAHVO) kategoriyalari mazmuniga muvofiq talqin qilish tashkil qiladi. Shu sababli o'zbek substansial tilshunosligining bosh tamoyili lingvistik tadqiq jarayonida (lisoniy birlik tabiatini ochish va talqin etishda) dialektik tahlil usullaridan onglilik va izchillik bilan foydalanishdan iboratdir. Dialektika shakl va mazmun aloqadorligini tan olgan holda mazmunga ko'proq e'tibor qaratgani sababli o'zbek substansial tilshunosligida fonetika-fonologiyada N.Trubetskoy–R.Yakobson–A.Reformatskiy tadqiq tamoyillari asosan saqlanib, tilning mazmun bilan bog'liq sathlari – leksika, morfologiya va sintaksis tadqiqi yetakchilik qiladi.

O'zbek substansial tilshunosligida tilshunoslikning eng asosiy tushunchalari *til~lison~meyor~nutq* quyidagicha tushuniladi:

Til – sof insoniy qobiliyat va imkoniyat. U tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat'iy sistemaga tizib saqlashga, axbotrotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi eng muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy bevosita va bilvosita kommunikatsiya vositasidir. Til *lison~me`yor~nutq* ning dialektik butunligidan iboratdir. Unda bosh ichki ziddiyat atash (nominativ) va ifodalash (ekspressiv) vazifalarning dialektik birligidadir [22;23;31].

³ Умумий ўрта таълим давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурлари. Она тили. Ўзбек тили. Журн. "Таълим тараққиёти ахборотномаси". 1999. 1 махсус сон. Б.55-105; Ҳозирги ўзбек адабий тили. 5220.100. Ўзбек филологияси йўналиши учун дастур. Тузувчилар Ҳ.Неъматов, Н.Маҳмудов, А.Нурмонов, Р.Сайфуллаева. Тошкент 2002.

Lison UMIS tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko`p qavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta`siriga o`ta sezgir, o`zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o`z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli iyerarxik sistemasidir.

*Me`yor* lisonning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo`lib lisoniy imkoniyatlardan – sinonimik qatorlardan, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklaridan har birining voqelanish o`rinlari va xususiyatlarini belgilaydi.

Nutq lisonning me`yor elagidan o`tgan muayyan moddiy (yozma, og`zaki, tasviriy /imo-ishora, signal v.h./ shakllaridan birida) voqelanishidir [22;23].

Lisoniy birliklar dialektik tabiatini ochish va ularni tavsiflashda o`zbek substansial tilshunosligi substansiallik, ichki ziddiyatlik, ko`p qatorlik, oraliq uchinchi asosiy tamoyillariga tayanadi. Bu tamoyillar o`zbek substansial tilshunosligining metodologik asosini tashkil etganligi sababli ularning har birini alohida izohlash lozim:

1. *Substansiallik*. Lisoniy birlik nutqda voqelantiruvchi barcha ma`no va vazifalarini o`zida ontologik mujassamlashtirgan, yashirgan deb olinadi. Nutqda hech bir narsa yaratilmaydi, balki lisoniy birlikdagi imkoniyat faqat yuzaga chiqariladi, xolos. Shuning uchun tilshunoslik oldida lisoniy birlik voqelanishidagi nutqiy alohidaliklarni umumiy lisoniy ma`noga birlashtirish va lisoniy imkoniyat sifatida ongda va lisoniy tizimda mavjud bo`lgan bu ma`noni nutqda muayyan ko`rinishlarda voqelantirish yo`llarini o`rganish vazifasi turadi.

2. *Ichki ziddiyatlik*. Lisoniy birlikning umumiy lisoniy ma`nosi ontologik ziddiyatli, qarama-qarshilikli – turli tabiatli tomonlarning birlashuvidan iborat bo`lgan dialektik butunlikdir. U hamisha serqirradir.

3. *Ko`p qatorlik*. Lisoniy birlik ontologik ziddiyatli tabiati bilan boshqa lisoniy birliklar bilan bir necha oppozitiv qatorga (munosabatlarga) – har bir qirradi bilan alohida-alohida siralarga – paradigmalarga kiradi. Shuning uchun uning

umumiy lisoniy ma'nosi bir necha oppozitiv siralardagi (paradigmalaridagi) differensial belgilarining yig'indisi, mohiyatiga ega bo'ladi.

4. *Oraliq uchinchi*. Lisoniy birliklardagi qarama-qarshi ma'no va vazifalar, paradigmalaridagi bir-birini inkor etuvchi birliklar zid tomonlarni o'z ontologik tabiatida mujassamlashtiruvchi hodisada birlashadi va ikki qarama-qarshilik orasida birlashtiruvchi vosita – oraliq uchinchi mavqeyida bo'ladi. Tabiatan istalgan lisoniy birlik oraliq uchinchi mohiyatiga egadir.

O'zbek substansial tilshunosligida lisoniy tizim yaxlitlikda partonimik (butun-bo'lak) munosabatlarga, lekin lisoniy yaruslar izchil gipero-giponimik (jins-tur) aloqalarga asoslanishi g'oyasi ilgari suriladi. Unda an'anaviy sinonimiya, antonimiya kabi munosabatlar doirasi ancha cheklangan bo'lib, graduonimiya, giponimiyaga keng o'rin berilgan.

Lisoniy birlikning asosiy turlari sifatida fonema, morfema, leksema va qolip (model) ajratilib, qoliplarning morfologik (lug'aviy shakllar yasash, sintaktik shakllar yasash), derivatsion (sodda va qo'shma so'z yasash), sintaktik (nominativ birliklar – so'z birikmalari hosil qilish qoliplari, kommunikativ birliklar – gap hosil qilish qoliplari) turlari farqlanadi. Morfologik, derivatsion, sintaktik qoliplar o'zaro iyerarxik munosabatlarda bog'lanadi. Bu modellar hosilalarining lisoniy birliklarga o'tishi va lison xazinasini muttasil to'ldirib borishida ixtososlashish – soddalanish – tublanish bosqichlari ajratiladi.

O'zbek substansial tilshunosligining leksikologiya, morfologiya, sintaksis, qiyosiy tipologiya sohalarida amalga oshirgan ishlari M.Qurbonova va H.Ne'matovlarning maxsus ishlarida tahlil etilgan va umumlashtirilgan [22;23;24;49;50;39;51;58].

Sintaksisning tadqiq manbayi so'z birikmalari va gap ekanligi tilshunoslikda bir necha asrdan beri tan olinadi. Substansial sintaksis ham shu asosiy g'oyaga tayanadi. Biroq substansial sintaksisda lison-nutq farqlanishi izchillik bilan olib borilganligi sababli moddiy shaklda voqelangan so'z birikmalari va gaplar nutq sathi birliklari sanaladi. Substansial sintaksis lison sathida faqat so'z birikmalari va

gaplarning qurilish chizmalari, qoliplarinigina qoldiradi. Nutqda voqelanish imkoniyatiga ega bo'lgan so'z birikmalari va gaplarning qurilish qoliplari substansial sintaksisning tadqiq manbayidir.

1.1. [Tur-jins] munosabatining so'z birikmalarida ifodalanishi.

Giponimiya, giponim hamda giperonim atamaları dastavval 1968-yilda ingliz tilshunosi Dj.Layonz tomonidan qo'llanilgan. Shundan so'ng giponimiya haqidagi dastlabki ilmiy axborotlar rus tilshunosligida ham vujudga kela boshladi. Rus tilshunoslari A.Ufimseva, L.Novikov, Y.Stepanov va fransuz tilshunosi V.Gakning ilmiy asarlarida ham giponimiya haqida dastlabki ilmiy mulohazalar bildirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, bu mulohazalar va qarashlarda giponimiyaning chegarasi va ifodalanish vositalari aniq asoslab berilmagan. Ammo giponimiya, ya'ni [tur-jins] munosabati, boshqacha aytganda, gipo-giperonimik munosabat til tizimida lisoniy birliklar orasidagi ma'noviy munosabatning bir turi sifatida mavjudligi aniqlangan. O'tgan asrning 60-yillari oxirida G'arbiy Yevropa va rus tilshunosligida sistem leksikologiyada ma'lum bo'lgan leksik-semantik guruhlar, sinonimik va antonimik paradigmalar bilan bir qatorda, lug'aviy birliklar orasidagi leksik-semantik munosabatning yangi bir turi giponimiya ajratiladi.

O'zbek tilshunosligida tilshunos olimi R.Safarova ilk marta bu ma'noviy munosabatni leksemalar lug'aviy ma'no strukturasidagi semalarga xos imkoniyat sifatida o'rgangan. Tilshunos R.Safarovaning bu munosabat turi haqidagi quyidagi fikrlari diqqatni tortadi: "Biz giponimiya hamda so'zlarning gipo-giperonimik qatori atamaları ostida ma'nosiga ko'ra obyektiv borliqdagi [tur-jins] munosabatini ifodalashga xizmat qiladigan so'zlar qatorini, paradigmalarni tushunamiz" [30].

R.Safarovaning fikricha: "Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'nolarni semantik jihatdan umumlashtiruvchi, mikrotizimning markaziy so'zi, dominantasi sifatida namoyon bo'luvchi lug'aviy birlikdir. Giponim – ma'lum jins turlarining nomlarini ifodalovchi hamda o'zining semantik tarkibida implitsid tarzda jins ma'nosini ifodalovchi tarkibda so'zni

biriktirib kelgan, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy boʻlgan lugʻaviy birlik” [30,12].

Oʻz navbatida, [tur-jins] munosabati toʻgʻrisidagi nazariy xulosalar R.Safarovning ilmiy tadqiqoti asosida shakllanganligi va ilmiy-oʻquv adabiyotlarda oʻz aksini topganligini taʼkidlash lozim. Shuningdek, bu maʼnoviy munosabat toʻgʻrisida H.Neʼmatov va R.Rasulovlarning “Sistem tilshunoslik asoslari” oʻquv qoʻllanmasida quyidagicha maʼlumot bilan tanishish mumkin: “Leksemalararo semantik munosabatlarning bir turi gipo-giperonimiya boʻlib, unda tur-jins munosabatlari oʻz ifodasini topadi. Gipo-giperonimik munosabatda giperonim (jins) va giponim (tur) farqlanadi. Chunonchi, daraxt (jins) – terak, olcha, chinor, olma, archa... (tur); meva (jins) – olma, olcha, shaftoli, oʻrik, nok... (tur); oʻquv qurollari (jins) – daftar, kitob, qalam, chizgʻich...(tur)” [8,27].

Bundan tashqari, tilshunos R.Safarova oʻzining “Лексик-семантик муносабатларнинг турлари” deb nomlangan risolasida ishimizning tadqiq manbayi haqida nazariy jihatdan muhim fikrlarni bayon etgan:

“...Til obyektiv borliqdagi jins-tur munosabatini ifodalashda oʻzining odatdagi ikki imkoniyatidan foydalanadi:

a) jins belgisining nomini ifodalovchi soʻz bilan yur belgisining nomini ifodalovchi soʻzning eksplitsid tarzda birikuvi asosida hosil boʻlgan soʻz birikmasi yordamida tur tushunchasining nomini ifodalaydi: *choʻrtan baliq, hind gʻozi, xitoy olmasi, turk choyi, hind hoyi, xitoy choyi* va h-zo;

b) jins belgisining nomini ifodalovchi soʻzning eksplitsid tarzda birikuvisiz, alohida lugʻaviy birliklar orqali tur belgisining nomini ifodalaydi: *ot, qulun, toy, gʻoʻlon, doʻlon, toʻlon; it, kuchuk, laycha, toʻrtkoʻz, olapar, boʻribosar*” [30,8-9].

Demak, gipo-giperonimik munosabat til tizimida lisoniy birliklarnig ikki turi orqali ifodalanish imkoniyatiga ega ekan, oʻzbek tilida [tur-jins] semantik munosabatining ikki usuli, yaʼni gipo-giperonimik munosabatning lugʻaviy birliklar va sintaktik birliklar orqali ifodalanish usullari mavjudligi toʻgʻrisida xulosa qilishga asos boʻladi.

O`zbek tilida gipo-giperonimik munosabatning sintaktik birliklar orqali ifodalanish usuli mavjud ekan, bu munosabatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladigan sintaktik birlikni aniqlash masalasi mantiqiy mushohadani davom ettirishni talab etadi. Bu masalaga R.Safarovaning quyidagi fikri aniqlik kiritadi:

“Dunyodagi barcha boshqa tillar kabi o`zbek tilining ham [jins-tur] munosabatini ifodalash asosida bog`langan lug`aviy birliklarni so`z birikmasi vositasida ifodalash imkoniyati cheklanmagan bo`lib, bu vositalar mahsuldor modellar orqali tasvirlanadi, xuddi shu tipdagi modellar bilan chegaralanadi” [30,9].

Ayni paytda, tilshunos R.Safarovaning o`zbek tilida gipo-giperonimik munosabatning ifodalanishi haqidagi mulohazalari asosida shunday savol tug`iladi: “[Tur-jins] munosabati nafaqat lug`aviy birliklar orqali, balki sintaktik birliklardan biri – so`z birikmalari orqali ham yuzaga chiqishini tilimizdagi dalillar tasdiqlay oladimi?” Tabiiyki, mazkur savol tilimizning leksik va sintaktik imkoniyatlarini birlashtiruvchi [tur-jins] munosabati mohiyatini anglash uchun [tur-jins] munosabatini ifodalovchi leksemalar va so`z birikmalarini qiyoslashni talab etadi.

Leksema (lisonda nomlash/atash)		So`z birikmasi (nutqda nomlash/atash)	
Jins	Tur	Jins	Tur
(nom)	(nom)	(nom)	(atash)
davlat	<i>O`zbekiston</i>	davlat	<i>O`zbekiston Respublikasi</i>
gazeta	<i>“Ma`rifat”</i>	gazeta	<i>“Ma`rifat” gazetasi</i>
daraxt	<i>eman</i>	daraxt	<i>shaftoli daraxti</i>
bozor	<i>Chorsu</i>	bozor	<i>Chorsu bozori</i>
ot	<i>ayg`ir</i>	ot	<i>arab oti</i>
tuyg`u	<i>mehr</i>	tuyg`u	<i>nafrat tuyg`usi</i>
kasallik	<i>saraton</i>	kasallik	<i>o`sma kasalligi</i>

Ko`rinib turibdiki, *O`zbekiston, "Ma`rifat", eman, Chorsu, ayg`ir, mehr, saraton* giponimlari lug`aviy ma`nolari tarkibida *davlat, gazeta, daraxt, bozor, ot, tuyg`u, kasallik* giperonimlariga xos umumlashtiruvchi semantik ma`lumot berilgan. Har bir giponim giperonimlning muayyan turini nomlaydi. Ammo keyingi birliklar so`z birikmasi shaklida bo`lib, bunday giponimlar *O`zbekiston Respublikasi, "Ma`rifat" gazetasi, shaftoli daraxti, Chorsu bozori, arab oti, nafrat tuyg`usi, o`sma kasalligi* o`z giperonimlari, ya`ni *davlat, gazeta, daraxt, bozor, ot, tuyg`u, kasallikning* muayyan bir turini o`ziga xos tarzda "ataydi".

*O`zbekiston, "Ma`rifat", eman, Chorsu, ayg`ir, mehr, saraton* giponimlari lison sathida tayyor bo`lib, bu leksemalar o`z giperonimlari kabi umumiy atash vazifasini emas, balki giperonimlardan farqli ravishda xususiy nomni atash vazifasini bajaradi. Lison sathida nomlash mazkur leksemalarning semantik imkoniyati bo`lib, bu imkoniyatlardan birigina yuzaga chiqqan.

O`zbekiston Respublikasi, "Ma`rifat" gazetasi, shaftoli daraxti, Chorsu bozori, arab oti, nafrat tuyg`usi, o`sma kasalligi so`z birikmalari esa giperonimlardagi umumiy ma`noni nutq sathida alohida-alohida yuzaga chiqaradi va atash vazifasi sintaktik usulda amalga oshishini ko`rsatadi. Natijada so`z birikmalari [tur-jins] ma`no munosabati leksemalarning o`zaro sintaktik bog`lanishi asosida ro`yobga chiqqanligi ma`lum bo`ladi. Mazkur so`z birikmalari [tur-jins] ma`no munosabati asosida bog`langan leksemalar paradigmasida giperonimning bir turini ifodalashiga ko`ra joylasha oladi. Bunga sabab shuki, so`z birikmalari leksemalar kabi atov birliklari bo`lib, ular o`zaro [tur-jins] ma`no munosabati asosida birlasha oladi.

Yuqorida berilgan so`z birikmalari leksik-semantik sath birliklarining gipo-giperonimik qatorida giponimlar sifatida ishtirok etishi ishimizda tahlil qilinayotgan muammo nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Chunki bu sintaktik birliklar mazmunida gipo-giperonimik munosabat, ya`ni [tur-jins] ma`no munosabati ifodalanadi.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, [tur-jins] munosabati muayyan soʻz birikmalari shaklida yuzaga chiqadi va tilimizning lisoniy imkoniyatlaridan biri voqelashganligidan darak beradi. Oʻz navbatida shuni taʼkidlash kerakki, bu soʻz birikmalari turli nutqiy vaziyatlarda qoʻllana oladi. Ularning nutqiy voqelanishiga doir kuzatishlar, nutqiy dalillar tahlili ishimizning keyingi bobida oʻz ifodasini topadi.

1.2. [Tur-jins] maʼnoli soʻz birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilishi.

Soʻz birikmalari sintaktik sath birliklari, yaʼni qurilish qoliplarining nutqiy voqelanishidan hosil boʻlishi hozirgi kunda hech kimni ajablantirmaydigan, bahsi yechilgan ilmiy xulosadir. Soʻz birikmalari va boshqa sintaktik birliklarni modellashtirish, ularni yuzaga chiqaruvchi lisoniy sintaktik qoliplarni aniqlash, bu sintaktik hodisalar mohiyatini ochish muammosi eng oldin H.Neʼmatov, K.Abdullayev, V.I.Banaru, N.Mahmudov, D.Muhammedova, A.Nurmonovlarning “Советская тюркология” jurnalining 1984-yil 5-sonidagi “Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков” deb nomlangan formal-funksional sintaksis tezislarida eʼlon qilingan edi. Shuningdek, keyinchalik tarkibida X.Haliyarov, R.Sayfullayeva boʻlgan shu mualliflar tomonidan mazkur jurnalning 1988-yil 4-sonida eʼlon qilingan “Способы синтаксической связи и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков” sarlavhali tezislarida oʻz ifodasini topgan edi.

Tilshunos L.F.Losevning fikriga koʻra, model obyektning nazariy talqini choʻqqisi hisoblanadi. Shuning uchun ham lingvistik birliklarni modellashtirish masalasi nazariy tilshunoslik uchun katta ahamiyatga ega. [16,10].

Sintaktik birliklarni modellashtirish masalasi nima sababdan tilga olindi? Bunga sabab shuki, tilning fonologik, morfemik, morfologik sathlari birliklari mohiyatini aniqlash uchun model yoki qolipning zarurati yoʻq. Ammo sintaktik sath birliklari quyi sath birliklari va ularning oʻzaro bogʻlanishidan tashkil topganligi bois bu til birliklarining qurilishini faqatgina modellashtirish orqali

anglash mumkin. Aksincha yo`l tutilsa, bu birliklar mohiyati ochilmay qoladi va faqat hodisaning tavsifi bilan cheklanishga to`g`ri keladi.

Chunonchi, Greplning ta`kidlashicha, qoliplar tadqiqotchining sun`iy ravishda yaratilgan “qurilmasi” emas, balki til sistemasining sintaktik sathidagi real nutqiy birlikka singgan obyektiv mavjudlikdir [42]. Sintaktik qoliplarning nutqiy zanjirda konkret leksik birliklar bilan to`ldirilshi esa shu sintaktik qolipning nutqdagi variantlari sanaladi.

O`zbek tilshunosligida asosiy sintaktik birliklar – so`z birikmasi va gaplarning sistemaviy tahlili asosida olib borilgan tadqiqotlardan ma`lumki, so`z birikmasi ham, gap ham, lison-nutq farqlanishi negizida ochiladigan lisoniy-nutqiy tomonlarning o`zaro ichki ziddiyatlaridan iborat [22; 23; 24; 31; 60].

Lison-nutq qarama-qarshiligi nuqtayi nazardan yondashadigan bo`lsak, lisoniy bosqichda sintaksis lisoniy sintaktik birliklarni tadqiq manbayiga aylantirsa, nutq bosqichida bu sath nutqiy sintaktik birliklar bilan ish ko`radi. Demak, sintaktik birliklar lison sathida lisoniy sintaktik birliklarga, nutq sathida esa nutqiy sintaktik birliklarga ajratiladi. Shunday ekan, sintaktik birlik til birligi sifatida o`z mohiyatida ikki yoqlama ichki ziddiyatni saqlaydi. Aslida, sintaktik birlik o`z mazmun mohiyatiga ko`ra ikki yoqlama ichki ziddiyatga ega bo`la oladi.

Sintaktik birlik ma`lum bir nominativ yoxud kommunikativ vazifani bajarishga mo`ljallangan atov birliklari hamda aloqa-munosabat shakllarining o`zaro birikish usuli va mahsuli orasidagi munosabatni ifodalovchi sintaktik qurilishning lisoniy bosqichdagi umumlashma hosilasidir.

Xususan, o`zbek tilida so`z birikmalarining formal-funksional (substansial) tadqiqi bergan xulosalarga ko`ra, so`z birikmasi kuzatishda beriladigan xususiyatlarning ifodachisi sifatida nutqiy hosila va bevosita kuzatishda berilgan birikmalarning barchasida qayta-qayta takrorlanuvchi sintaktik qurilishning ongdagi umumlashmasi hisoblangan lisoniy-sintaktik qolip orasidagi ichki ziddiyat va bu tomonlarning o`zaro mufiqlashuvidan tashkil topgan. Qisqasi, so`z birikmasi

nutq bosqichida nutqiy hosilaga teng bo'lsa, lison bosqichida sintaktik qurilishning umumiy, o'zgarmas qirralarini birlashtiruvchi lisoniy qolip mohiyatini belgilaydi.

O'zbek substansial sintakisida lison-nutq farqlanishi izchillik bilan olib boriladi. Shu sababli moddiy shaklda voqelangan so'z birikmasi va gaplar nutqiy sath birliklari sanaladi. Shunday ekan, substansial sintaksis lisoniy sathda faqat so'z birikmalari va gaplarning qurilish chizmalari – qoliplarinigina qoldiradi. Lisoniy sathda so'z birikmasi va gaplarning hosil bo'lishini ta'minlaydigan yasalish tarhlari qoladi. Boshqacha aytganda, nutqda voqelanish imkoniyatiga ega bo'lgan so'z birikmalari va gaplarning qurilish qoliplari substansial sintaksisning tadqiq manbayi hisoblanadi.

Ushbu bo'limda [tur-jins] ma'noli so'z birikmalarining lisoniy qurilishiga xos xususiyatlar tahlil qilinadi. Chunki oldimizda turgan asosiy vazifa [tur-jins] ma'noli so'z birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilish qolipini aniqlash va bu qolipning mohiyatini ochib berishdan iborat. Birinchi navbatda, so'z birikmasi lisoniy-sintaktik qurilish qoliplari haqidagi nazariy asoslarga murojaat qilamiz.

Ma'lumki, so'z birikmasining lisoniy-sintaktik mohiyati so'z birikmasi lisoniy-sintaktik qurilish qoliplari orqali yechiladi. Shunday ekan, so'z birikmasi lisoniy-sintaktik qurilish qolipi tushunchasiga aniqlik kiritish lozim. Oldin eslatib o'tganimizdek, o'zbek tili sruktural va substansial sintaksisi nazariy asoslari bayon etilgan manbalarda [23;24;31;49] lisoniy-sintaktik birliklar haqidagi, xususan, so'z birikmasi lisoniy sintaktik qolipi to'g'risidagi ma'lumotlarga tayanamiz.

Sintaktik qoliplar mohiyatan g'isht quyuvchi ustaning qolipi (uskunasi)ga o'xshaydi [24,6]. Ammo bizning ongimizda, nutqni shakllantirish uchun xilma-xil maqsadlarga xizmat qiluvchi leksemalarni so'z birikmalari sifatida bog'lash, leksema yoki so'z birikmalariga gap shaklini berish qoliplari mavjud [24,6].

So'z birikmalari va gaplarni hosil qiluvchi, ularni turli nutqiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida voqelantiruvchi qoliplar lisoniy-sintaktik qurilish qoliplar hisoblanadi. Shu o'rinda lisoniy-sintaktik qurilish qoliplarni modellar, konstruksiyalar, qurilmalar [22;23;24], deb atashlarini ham ta'kidlash lozim.

Ma'lumki, har qanday lisoniy qolip muayyan qurilma yoki tuzilma shaklida bo'ladi. Shu boisdan ham qolip atamasi bilan barobar qurilma, sintaktik qurilish atamaları ham qo'llanadi. Qolip shaklan qurilmani eslatgani uchun emas, balki o'z mohiyatiga ko'ra muayyan qurilishni anglatgani uchun uni qurilmaga tenglashtiradilar. Zotan, "qolip – til birliklarining o'zaro birikish yo'li, usuli va uning mahsuli" [23,13] hisoblanadi.

So'z birikmalari va gaplarni hosil qiluvchi qoliplar sintaktik qoliplar hisoblanadi. Sintaktik qoliplar, ya'ni lisoniy-sintaktik qoliplar til jamiyati a'zolari ongida tayyor holda lisoniy shakl va mazmun aloqadorligining in'ikosi sifatida mavjud bo'ladi. Chunonchi, tilshunos olim B. Mengliyev: "Lisoniy sintaktik qoliplar jamiyat a'zolari ongida yashaydi va moddiy qiyofaga ega emas, uni sezgi a'zolari asosida his qilib bo'lmaydi" deb ta'riflaydi [20, 8-9]. Shuningdek, lisoniy sintaktik qoliplar bir kishi tomonidan emas, balki shu tilda so'zlashuvchi jamiyatning barcha a'zolari tomonidan uzoq vaqt davomida shakllantirilishi, lisoniy sintaktik qoliplarning ijtimoiy tabiatga egaligi, lisoniy sintaktik qoliplar har bir so'z birikmasida takrorlanishi, o'zbek tilida so'z birikmasi hosil qiluvchi o'n sakkizta ustuvor qolip aniqlanganligi, demak, lisoniy-sintaktik qurilish qoliplar miqdoran cheklanganligi va oxir-oqibatda so'z birikmasi tuzishga ehtiyoj sezgan o'zbek, istaydimi, istamaydimi, mazkur so'z birikmasi lisoniy-sintaktik qurilish qolipining o'n sakkiz turidan foydalanishga majbur ekanligi B. Mengliyevning "O'zbek tili struktur sintaksisi" kitobida [20, 8-10] atroflicha yoritilgan.

Shunga ko'ra, "So'z birikmasi lisoniy-sintaktik qurilish qolipi muayyan turdagi so'z birikmasini hosil qiluvchi, bevosita kuzatishda berilmagan, o'z mahsuli orqali moddiylasha oladigan, nutqda cheksiz takrorlanish imkoniyatiga ega bo'lgan, o'z hodisalari sintaktik qurilishining umumiy, o'zgarmas xususiyatlarini qamrab olgan lisoniy birlik" degan xulosa kelib chiqadi.

Binobarin, so'z birikmasi lisoniy-sintaktik qolipi va muayyan so'z birikmasi, ya'ni nutqiy hosila orasida ziddiyat aynan shu xususiyatlari tufayli yuzaga keladi. Zero, so'z birikmasi nutqiy hosila sifatida bevosita kuzatishda berilganligi,

moddiyligi, betakrorligi, miqdoran cheklanmaganligi, o`zgaruvchanligi va ixtiyoriyligi bilan mazkur ziddiyatda so`z birikmasi lisoniy-sintaktik qurilish qolipiga qarama-qarshi qutbda turadi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, nutqiy hosila lisoniy-sintaktik qurilish qolipi mohiyatini betakror hodisalarda moddiylashtiradi, cheksiz miqdordagi ixtiyoriy, tasodifiy birikmalar tipi yoki guruhini tashkil etadi.

Sintaktik sathga tegishli barcha lisoniy-sintaktik birliklar singari so`z birikmasi lisoniy-sintaktik qurilish qolipi ham yuqori (lisoniy) bosqich birligi sanalganligi uchun quyi (nutqiy) bosqichdagi birliklar bilan pog`onali bog`lanish hosil qiladi. So`z birikmasi lisoniy-sintaktik qurilish qolipi tilning quyi bosqich birliklari, ya`ni nutqiy hosilalarning voqelanish imkoniyatlari va sababiyatini belgilaydi.

Lisoniy-sintaktik qurilish qoliplarining har biri tilimizda o`ziga xos shakl va mazmunga ega. Shakl va mazmun istalgan lisoniy-sintaktik qurilish qolipining tashqi – moddiy tomonini va ichki – mazmun, vazifa tomonini tashkil etadi. Barcha lisoniy birliklar kabi lisoniy-sintaktik qurilish qolipi ham ma`lum bir shakl va muayyan mazmunning nomutanosib bog`lanishidan iborat bo`ladi. So`zlovchi uning shakliy va mazmuniy tomonini o`z ixtiyoriga ko`ra o`zgartira olmaydi. Ammo har bir lisoniy-sintaktik qurilish qolipida shakl va mazmunni ma`lum darajada o`zgartirish imkoniyati mavjud bo`ladi. Ayni choqda, lisoniy-sintaktik qurilish qolipining shakl va mazmun jihatidan o`zgarish darajasi lisoniy tizim tomonidan chegaralangan bo`ladi. Lisoniy-sintaktik qurilish qoliplari haqidagi ilmiy qarashlarni umumlashtirdik va bu nazariy umumlashmalarga tayanib, [tur-jins] ma`noli so`z birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilishini umumlashtiruvchi qolip mohiyatini aniqlash lozim.

Bizga ma`lumki, lisoniy-sintaktik qurilish qolipi tub mohiyatiga ko`ra riyoziy tenglamaga o`xshaydi va ikki qismdan iborat bo`ladi: tenglik belgisidan chap tomon va bu belgidan o`ng tomon [24,10]. [Tur-jins] ma`noli birikmalarni voqelantiruvchi lisoniy-sintaktik qurilish qolipi ham riyoziy tenglama ko`rinishiga

ega bo`lib, tenglikdan chap tomonda lisoniy-sintaktik qurilish tarzini ifodalovchi  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$  qism va tenglikdan o`ng tomonda birikish usulining natijasi hisoblangan mazkur birikish mahsulini ifodalovchi [SB] qismi joylashadi. Mazkur lisoniy-sintaktik qolipining to`liq ifodasi quyidagi lisoniy tenglama ko`rinishida bo`ladi:

$$[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = [\text{tur-jins}] \text{ SB.}$$

Berilgan $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = [\text{tur-jins}]$ SB qolipi o`zbek tilida mavjud [tur-jins] ma`no munosabatini bildirgan yuz minglab so`z birikmalarining hosil bo`lishini lisoniy-sintaktik qurilish nuqtayi nazaridan umumlashtiruvchi lisoniy birlikdir. Aynan shu xususiyatiga ko`ra bu qolip lisoniy sintaktik birlik hisoblanadi.

Qolip tarkibidagi [O] ramzi, shakli predmet nomi – otni bildiruvchi so`zlarni ixcham tarzda umumlashtirib ko`rsatadi. $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = [\text{tur-jins}]$ SB qolipida tenglamaning chap qismi, ya`ni  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$  qismi lisoniy-sintaktik qurilish qolipining shakliy tomonini tashkil etadi. Qurilma tarkibiy qismlari orasidagi munosabatlar  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = [\text{tur-jins}]$  SB lisoniy-sintaktik qurilish qolipida o`z aksini topadi. $[O^{b.k.}]$ ramzi tobe vaziyatda sintaktik aloqaga kirishayotgan tur ma`nosini anglatuvchi leksemalarni umumlashtiradi. Jins ma`nosini ifodalovchi hokim vaziyatdagi lug`aviy asoslar esa $[O^{e.k.}]$ ramzi orqali ifodalanadi. Nutq jarayonida bu ramzlar istalgan predmet mohiyatli, ammo muayyan leksemalar voqelana olishiga ishora qiladi. Demak, $[O^{b.k.}]$ va $[O^{e.k.}]$ ramzlari qolip tarkibiy qismlari sifatida ot turkumiga aloqador leksemalar voqelanishini talab etadi. Shunday ekan, umumlashtirish xususiyati bir butun qolip va uning tarkibiy qismlariga xos ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Chunki mazkur lisoniy-sintaktik qolip mohiyatini belgilovchi [tur-jins] munosabati tobe bo`lak tarkibidagi bosh kelishik shakli va hokim bo`lak tarkibidagi [-i,/-si] egalik ko`rsatkichi orasidagi sintaktik birikish usuli yaqqol, ammo umumlashgan holda aks etadi. Bu lisoniy-sintaktik qolipning  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$  qismi orqali namoyon bo`ladi.

$[O^{b.k.}]$ umumiy lisoniy shakli tobe bo`lak mavqeyida turganligini,  $[O^{e.k.}]$  umumiy lisoniy shakli esa hokim bo`lak mavqeyini egallaganligini anglash qiyin

emas. Mazkur umumiy lisoniy shaklda bosh kelishikdagi otning tobeligini morfologik shakl taqozo etadigan joylashish tartibi asosida belgilash mumkin. Zero, bu lisoniy birlik tobelanish qonuniyatining ikki lisoniy imkoniyatini uyg'un holda voqelantiradi. Bulardan birinchisi morfologik va sintaktik omillar orqali yuzaga chiqayotgan imkoniyat bo'lib, u kelishik kategoriyasining "keyingi tobelanish" xususiyatiga tayanadi. Negaki, kelishik kategoriyasi oldingi so'zni "keyingi tobelanish" vazifasini bajaradi [24,14;54;31].

Har qanday lisoniy qolip so'z yasash qolipi bo'ladimi, so'z birikmasi qolipi bo'ladimi, baribir, ikki qismdan iborat bo'lgan muayyan qurilmadir. Tilshunos M.Qurbonovanning ta'kidlashicha, so'z birikmasi qoliplari va gap qoliplari eng yuqori, eng murakkab sath birligi bo'lganligi sababli ikkita tarkibiy qismdan iborat [39,13]. Shunday ekan, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ lisoniy qolip bo'lib, mazkur qurilma talab qiladigan til birliklarining birikish yo'li, usuli va mahsulini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, bu qolip ham so'z yasash qolipi va gap qolipi singari ikki qismdan iborat bo'ladi. Ya'ni qolip chap tomon va o'ng tomondan tashkil topadi. Umuman, lisoniy-sintaktik qolip tub mohiyati bilan riyoziy tenglamaga o'xshaydi. Lisoniy tenglama hisoblangan lisoniy-sintaktik qolip ham ikki qism – tenglik belgisidan chap tomon va bu belgidan o'ng tomondan iborat bo'ladi.

$[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipini lisoniy tenglama deb olsak, bu tenglamaning chap tomoni $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ ko'rinishiga ega ekanligini ko'rish mumkin. O'z navbatida, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ va SB qismlari orasida qolip butunligini ta'minlovchi tenglik mavjud. Chunki qolipning chap tomonidagi $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ ramzi birikish usulini bildirsa, o'ng tomondagi SB ramzi esa shu birikish usulining natijasi, ya'ni qolip mahsulini anglatadi. Demak, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipi $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ shakli va uning mazmuni – mazkur birikishning mahsuli, natijasi, ya'ni SB orasidagi bog'lanishning ixcham ramziy ifodasidir.

Ma'lumki, lisoniy-sintaktik qurilish qoliplari nutqiy hosilalarni oddiy umumlashtirish asosida emas, balki lisoniy bosqichda lisoniy birliklar orasidagi paradigmatic munosabatlar va butun-bo'lak aloqalari asosida ochiladi. Lisoniy-

sintaktik qurilish qoliplarining tashkil etuvchilari ulardan quyi-roq sath birliklari bo`lib, ma`lum munosabatlar asosida yangi bir butunlik tarkibida birlashadi va natijada lisoniy-sintaktik birlikni keltirib chiqaradi. Demak, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ lisoniy-sintaktik qolipining tarkibiy qismlari, ya`ni tashkil etuvchilari sintaktik sathdan quyi-roq sath birliklari hisoblanadi.

Biz tahlil qilayotgan qolip tarkibida $[O^{b.k.}]$ va $[O^{e.k.}]$ ramzlari bosh kelishik va egalik shaklidagi ot leksemalarini ixcham tarzda umumlashtiradi. Ayni paytda, bu ramzlar ifodalovchi birliklar sintaktik sathdan quyida turgan leksik-semantik va morfologik sath birliklari hisoblanadi. Chunonchi, ot leksemalar leksik-semantik sathga tegishli bo`lsa, aloqa-munosabat shakllari hisoblangan bosh kelishik  $[\emptyset]$  va egalik ko`rsatkichi $[-i/-si]$ morfologik sathga mansubdir.

$[O^{b.k.}]$ va $[O^{e.k.}]$ ramzlari yuqori bosqich birligi tarkibiga kirgunga qadar quyi bosqichda, ya`ni morfologik shakl va mazmunning o`zaro bog`lanishidan iborat bo`ladi. Bu birliklar yangi bir butunlik tarkibida birlashib, sintaktik sath birligini hosil qiladi. Natijada, $[O^{b.k.}]$ va $[O^{e.k.}]$ ramzlari anglatuvchi birliklar o`zaro sintaktik aloqaga kirishib, mazkur ramzlarda ifodalanganidek, faqat otlardan tuzilgan so`z birikmalari yuzaga keladi. Bunday so`z birikmalarida  $[O^{b.k.}]$  tobe bo`lak mavqeyida bo`lsa,  $[O^{e.k.}]$  hokim bo`lak mavqeyini egallaydi. Shunga ko`ra, tobe bo`lak $[O^{b.k.}]$ ramzi bilan, hokim bo`lak esa  $[O^{e.k.}]$  ramzi bilan ifodalangan  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$  qolipi qanday so`z birikmalarini yuzaga chiqarishini aniqlashhtiyoji paydo bo`ladi. Biroq dastavval $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ ramziy ifodasi orqali moddiylashuvchi birikish usulini lisoniy-sintaktik jihatdan tahlil qilish lozim.

Nutqiy voqelikda $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ lisoniy-sintaktik qurilish qolipini boshqa qoliplardan farqlovchi nutqiy hosilalari bor. Bu hosilalarning mazmuni $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipining o`ziga xosligini tasdiqlaydi.

Jumladan, *kitob do`koni, gul do`koni, adabiyot darsi, ingliz tili, tikuvchilik fabrikasi, Buxoro viloyati, Hind okeani, Pomir tog`i, Afshona qishlog`i, Zarafshon daryosi, Navoiy ko`chasi, Navro`z bayrami, "Diyonat" romani, Yupiter sayyorasi, Andromeda yulduzi, muhabbat tuyg`usi, nok daraxti, Foni taxallusi, kuz fasli,*

“*Dilxiroj*” kuyi kabi soʻz birikmalari $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ lisoniy-sintaktik qurilish qolipining nutqiy hosilalari boʻlib, ushbu qolip qanday vazifa bajarishini bildiradi.

$[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ lisoniy-sintaktik qurilish qolipi ifodalovchi boʻlib, qanday ifodalanmishga egaligini aniqlash zarur. Bizga maʼlumki, substansial tadqiqning asosiy tahlil usuli oddiy (formal) mantiq emas, balki dialektik mantiqdir. Shu sababdan yuqoridagi soʻz birikmasi lisoniy-sintaktik qolipining shakliy tomoni sifatida ajratilgan $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ qismi nisbiy muayyan hisoblanadi. LSQning shakliy tomoni boʻlgan $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ umumiydir. Bu umumiylik nutqda moddiylashayotgan, voqelanayotgan cheksiz nutqiy hosilalarda takrorlanadigan moddiy tomondan ajratib olingan va umumlashtirilgan. $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ umumiy shakl sifatida cheksiz miqdordagi yangi-yangi soʻz birikmalarida takror holda voqelanaveradi.

Tahlil qilinayotgan $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipi nafaqat shakl, balki mazmun tomoniga ega. Mazmun shaklning mavjudligini belgilaydi. Shunday ekan, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipi qanday mazmunga egaligini aniqlash ushbu qolip hosilalarining mazmunini tahlil qilishni talab etadi.

Taʼkidlab oʻtilganidek, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ koʻrinishidagi lisoniy tenglamaning chap tomoni oʻzbek tilida faqat otlar orasida mavjud boʻlgan birikish usulini bildirsa, uning oʻng tomoni SB ramzi oqgali birikish mahsulini ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan misollardan maʼlum boʻladiki, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipidagi tobe boʻlak va hokim boʻlaklar mavqeyida faqat ot leksemalar voqelashadi. Bosh kelishikdagi ot soʻz turkumi bilan ifodalangan leksemalarning egalik shaklidagi ot leksemalar bilan sintaktik aloqasi natijasida [tur-jins] maʼno munosabatini yuzaga keltiruvchi soʻz birikmalari roʻyobga chiqadi [48].

$[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = [tur-jins]$ SB qolipining oʻng tomonida mazmun ifodalanadi. Tobe boʻlak mavqeyida voqelashgan bosh kelishikdagi ot leksema hokim boʻlak mavqeyida yuzaga chiqqan egalik shaklidagi ot leksemalarning “nomi”ni, turini bildiradi. Oʻz navbatida, egalik shaklli ot leksemalar esa “nomi”, turi aniqlanayotgan “jins” maʼnosini anglatadi.

Masalan:

kitob do`koni* – *kitob* (nom, ya'ni tur) + *do`koni (jins);

o`zbek xalqi* – *o`zbek (nom, ya'ni tur) + *xalqi* (jins).

Bu hosilalar “kitob sotiladigan do`kon”, “xalqning muayyan turi” ma’nolarini bildiradi hamda do`kon va xalqning ma’lum bir turini nomlaydi.

Chunki *gul do`koni* va *non do`koni* kabi so`z birikmalarida do`kon(jins)ning, *tojik xalqi*, *rus xalqi* kabi so`z birikmalarida xalq(jins)ning boshqa turlari mavjudligi tasdiqlanadi. Shuning uchun ongimizda mavjud “muayyan narsa-buyum, mahsulotni talabgorlarga yetkazish, sotish vazifasini bajaruvchi va savdo-sotiq shaxobchasi sanalgan” *do`kon* leksemasi yoki “aniq chegaralangan hududda yashovchi, bir oliy maqsad yo`lida birlashgan, bir yoki bir nechta elat vakillaridan tashkil topgan jamiyat asosini ifodalovchi” *xalq* leksemasi jins sifatida *kitob do`koni* (tur-jins), *non do`koni* (tur-jins), *gul do`koni* (tur-jins) yoki *o`zbek xalqi* (tur-jins), *tojik xalqi* (tur-jins), *rus xalqi* (tur-jins) so`z birikmalarida muayyan turlarga ega bo`lish imkoniyatini ko`rsata oladi. Bu faqatgina “do`kon va uning turlari” va “xalq va uning turlari” ma’no bog`lanishini bildirgan so`z birikmalari haqida aytilgan mulohazalar qolipning boshqa hosilalariga ham tegishlidir.

Anglashiladiki, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipida tobe bo`lak bosh kelishik shaklidagi ot leksemalarning o`zidan keyingi egalik shakldagi ot leksemalarga tobelanishini o`z joylashuv imkoniyati orqali ifodalayotganligini ko`rsatadi. Bunda leksemaning lug`aviy manosi bosh kelishikning semantik jihatdan “nom”ni ifodalash va sintaktik jihatdan “keyingi”ga uzluksiz bog`lanish vazifalari bilan uyg`unlashadi. Tobe belgili bunday so`z shakli keyingi so`z tarkibiga “singib ketgandek” hokim belgili so`z shakli bilan butunlik hosil qiladi. Shu bois *Pomir tog`i* so`z birikmasi orqali “muayyan tog`ning nomi” tushunchasi bir butun holda anglashiladi. Lekin *Pomirning ulkan tog`i* birikmasi mantiqan nima nimaga tegishli ekanligini yoki nimani atayotganligini aniqlashga imkon bermaydi [48]. Demak, bunday so`z birikmalarida tobe so`zni hokim so`zdan “ajratib bo`lmaydi”. Boshqacha ifodalaganda, [tur-jins] ma’no-munosabatini bildirgan so`z

birikmalarida tobe bo`lakning hokim bo`lak bilan yonma-yon, uzluksiz bog`lanishi bu birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilishida kuzatiladigan o`ziga xos xususiyat ekanligi ravshan bo`ladi. Negaki,  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$  qolipi [tur-jins] ma`no munosabatini anglatgan barcha nutqiy hosilalarida o`z mazmunini yuzaga chiqaradi va aniqlashtiradi. Demak,  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$  [tur-jins] qolipi o`zbek tili sintaktik sathida lisoniy-sintaktik birlik maqomida turadi.

Bob bo`yicha xulosalar:

O`zbek tilida sifatida [tur-jins] munosabati semantik munosabatlarning bir turi sifatida o`rganilgan. Bu munosabatning so`z birikmalarida ifodalanishi tilimizda [tur-jins] munosabatining sintaktik ifodalanish usuli mavjudligidan dalolat beradi. O`zbek tilida [tur-jins] munosabatining sintaktik ifodalanish usulini $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ lisoniy-sintaktik qolipi va uning hosilalari belgilaydi.

$[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipi [tur-jins] ma`noli so`z birikmalarining lisoniy qurilishi va gipo-giperonimik munosabatning sintaktik ifodalanish usulini umumlashtiruvchi birlik bo`lib, lisoniy-sintaktik sath birliklari sirasiga kiradi.

O`zbek tilida bosh kelishikdagi ot leksemalarning egalik shaklidagi ot leksemalar bilan bog`lanishi natijasida yuzaga keladigan [tur-jins] munosabatini ifodalovchi so`z birikmalari $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = [tur-jins] SB$ qolipining mohiyati va vazifasini belgilaydi.

[Tur-jins] ma`noli so`z birikmalarida tobe bo`lak mavqeyida voqelashgan ot leksemalar “nom” yoki turni bildirsa, hokim bo`lak mavqeyida yuzaga chiqqan ot leksemalar “jins” ma`nosini anglatadi. Shuning uchun bu birikmalar [tur-jins] ma`noli so`z birikmalari deyiladi va so`z birikmalari ma`noviy tiplari tasnifida alohida ajratilishi lozim. Demak, o`zbek tili sintaksisida navbatdagi dolzarb muammo so`z birikmalarini ma`noviy jihatdan tasniflash va ularning ma`noviy tiplarini ajratish masalalarini tahlil qilishdir.

II bob. Publitsistik uslub o`zbek tili vazifaviy uslublaridan biri sifatida.

Til mohiyatan jamiyat mahsulidir. Kishilar biror hodisa, fikr, istak, so`roq yoki hayajonni til bilan ifodalaydilar, ifodalanmish narsani bir-biriga bildiradilar. Demak, til ifoda va aloqa vositasi hisoblanadi. Binobarin, “kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma’lum darajada farq qiladilar”[35,9]. Hozirgi o`zbek adabiy tilida so`zlovchi yoki yozuvchi odam nutqiy sharoit taqozosiga ko`ra bu tilda mavjud so`zlarning grammatik formalari, so`z birikmalari va gap tuzilishining ma’lum qismidangina foydalanadi. Muayyan bir ma’ruza yoki ma’lum maqola egasi yoxud ilmiy asar, shuningdek, biror bir badiiy asar muallifi, shu bilan birga, har qanday shaxs ham bu tilning barcha so`z boyliklaridan, grammatik vositalaridan, imloviy va talaffuz imkoniyatlaridan to`lig`icha foydalanmaydi. Hatto eng mashhur va ulkan yozuvchining ijodida ham o`zbek tilining boy imkoniyatlari amalda qisman ishga solinadi. Mana shu ma’noda tilning potensial imkoniyatlari kollektiv doirasida ham hech qachon to`lig`icha ishga solinadi, deb bo`lmaydi [12,11].

Tilning imkoniyatlari bu imkoniyatlarning amalda qo`llanayotgan holatidan doimo ortiq va keng bo`ladi. Har bir tildagi mana shunday boy imkoniyatlar bu tilning vositalar sistemasini tashkil etadi. Jamiyat a’zolarining til vositalaridan foydalanishi, ya’ni nutq murakkab va ko`p qirrali jarayondir. Shu bilan birga, nutq ko`rinishlari konkret sharoit va maqsad, ijtimoiy muhitga ko`ra ham farqlanadi. Ayni paytda, nutq so`zlovchi shaxslarning turmush tarzi, kasb-kori, dunyoqarashi, aytmoqchi bo`lgan fikri, maqsadi, nutqiy sharoit, so`zlovchining psixik, fiziologik holati, adabiy tilni qanchalik egallaganligi yoki egallamaganligi, ma’lumoti va shunga o`xshash juda ko`p omillar bilan chambarchas bog`liqdir [12,12]. Individual nutqda ham, kollektiv nutqida ham til vositalaridan sanab o`tilgan ko`p sonli omillarni hisobga olgan holda, ma’lum ko`nikma va malakaga ko`ra tanlab foydalaniladi. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko`rinishlarining paydo bo`lishiga olib keldi [35,19].

Nutqning vazifaviy uslublarini tadqiq etish, ularning lingvistik belgilarini aniqlash, nutq uslublarida lisoniy birliklar funksional xususiyatlarini ochish va lisoniy dalillar asosida ularni ajrata bilish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalalarning tadqiqi bo'yicha jahon va rus tilshunosligida anchagina ishlar bajarilgan. Stilistikaning fan sifatida shakllanishi va taraqqiyoti o'z vaqtida V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, O.S.Axmanova, O.D.Mitrofanova, D.E.Rozental, O.B.Sirotina, D.N.Shmelev, B.N.Golovin, V.N.Yarseva, A.A.Xolodovich, R.A.Budagov kabi olimlarning asarlarida o'z aksini topdi. Turkiyshunoslikda X.Kurbatov, A.Nurmaxanova, O.A.Nechayeva, shu jumladan, o'zbek tilshunosligida G'.Abdurahmonov, A.Mamajonov, R.Qo'ng'urov, Yo.Tojiyev, B.O'rinboyev, E.Qilichev, X.G'afurov, E.Xo'janiyazov, M.Hakimov, Sh.Iskandarova tadqiqotlarida tilimiz uslublariga xos turli xususiyatlar tadqiq etilgan. Biroq tadqiqotchilarni stilistikaning umumiy masalalaridan ko'ra uning xususiy jihatlari, ya'ni yozuvchi va shoirlarimiz asarlarining til xususiyatlari ko'proq qiziqtirgan.

Tilshunoslikda ilmiy-texnik adabiyot tili funksional-uslubiy birlik sifatida (O.D.Mitrofanova), ilmiy uslub va uning boshqa uslublar bilan qiyoslanishi (M.N.Kojina), uslublarning differentsiatsiya muammosi (I.R.Galperin), grafik uslubiy vositalar (I.V.Arnold), so'z birikmalari stilistikasi (A.F.Yefremov, E.Xo'janiyazov), ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning uslubiy qo'llanish xususiyatlari masalasi (X.Kurbatov, A.Nurmaxanova, M.Sharipov, N.S.Pospelov, V.I.Koduxov) va shu kabi bir qancha masalalar tadqiq etilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'z birikmalarining ba'zi turlari, sodda va qo'shma gaplarning turli vazifaviy uslublarda qo'llanish masalalari ayrim ilmiy asarlarda tadqiq etilgan, maxsus tadqiq manbayi bo'lgan. Ammo mazkur masalalar hali yetarli darajada o'rganilmagan. Jahon tilshunosligida, xususan, turkiyshunoslikda sodda gaplarning uslubiy xususiyatlari hamda qo'shma gaplarning stilistikasi tadqiq etilgan. Shunday bo'lsa ham, bu sohada bajarilishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p. Ayniqsa, publitsistik uslubda sintaktik birliklar, xususan, so'z birikmalarining o'ziga xos

qo'llanilishi hozirgacha atroflicha tahlil etilmagan. Shuning uchun mazkur bobda [tur-jins] ma'noli so'z birikmalarining nutqiy voqelanishi masalasi bilan aloqador [O^{b.k.}~O^{e.k.}] qurilmali birikmalarning publitsistik nutqda qo'llanilishini o'rganish maqsadi kun tartibiga qo'yilgan.

Nutqning xilma-xil ko'rinishlari, ularning uslubiy xususiyatlari, asosiysi, til sistemasida nominativ birliklar kabi lisoniy qiymat kasb etgan [O^{b.k.}~O^{e.k.}] qurilmali birikmalarning publitsistik nutqda qo'llanish imkoniyatlarini tahlil qilish mazkur bob oldida turgan asosiy vazifadir. Shuning uchun ishtning ushbu bobida [O^{b.k.}~O^{e.k.}] qurilmali birikmalarning publitsistik nutqda voqelanishi tahlil qilinadi.

Shunga ko'ra, mazkur bobda birinchi navbatda publitsistik uslub, undan keyin publitsistik nutq va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida mulohaza yuritiladi. Demak, navbatdagi vazifa o'zbek adabiy tiliga xos uslublar to'g'risida va publitsistik uslubning o'ziga xosligini aniqlash bo'lib, bu vazifa mazkur bobning birinchi va ikkinchi bo'limida amalga oshiriladi.

2.1. O'zbek adabiy tilining vazifaviy uslublari to'g'risida.

Ushbu bobning ibtidosida umumxalq tili doirasida til vositalarining tanlab olinishi va ulardan ma'lum ko'nikma-yu malakaga ko'ra foydalanish nutqning xilma-xil ko'rinishlarini yuzaga keltirganligi haqida mulohaza bildirilgan. Buni eslashdan maqsad nutqning xilma-xil ko'rinishlari nutq uslublari hisoblanishini, aslida, nutq uslublari ifoda vositalari sistemasining muayyan aloqa doirasida maqsadga muvofiq tanlash natijasida tarixan tashkil topgan nutq ko'rinishlari ekanligi[35,9]ni ta'kidlashdir. Negaki, til o'z vazifasini alohida-alohida nutq ko'rinishlarida, ma'lum uslublar doirasida bajaradi.

Nutq uslublarning har biri alohida yagona bir sistemani tashkil qiladi. Nutq uslubining bir-biriga aloqador elementlar sistemasini tashkil etishi tilning aloqa-aralashuv quroli sifatida xizmat qilishi bilan bog'liq ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. Tabiiyki, tilning fonetik tuzilishi, lug'aviy birliklar tarkibi va grammatik qurilishi ham har biri alohida bir tizimni tashkil etadi va yaxlit holda bir butun til

tizimi ichida sistema-element munosabati asosida joylashadi. Tilning vazifaviy uslublari mana shu fonetik, leksik, grammatik tizimlarga xos barcha vositalarning ma'lum kommunikativ maqsadga ko'ra birlashuvi tufayli vujudga keladi. Demak, nutq uslublari tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular "funktional stillar" deb nomlanadi [35].

Bizningcha, "O'zbek tili stilistikasi" o'quv qo'llanmasi mualliflari ishlatgan "funktional stillar" atamasi o'rnida "vazifaviy uslublari" atamasini ishlatgan ma'qulroq. Zero, so'nggi yillarda chop etilayotgan va tobora ommalashayotgan uslubiyatni tadqiq etuvchi manbalarda mazkur atama "vazifaviy uslublari" ko'rinishida qo'llanmoqda. Mazkur atamadan foydalanish o'rinli bo'lib, uni ilmiy tavsiflash lozim. Professor Y.Tojiev, N.Hasanova, R.Saidova, O.Yo'ldosheva bilan hammualliflikda e'lon qilingan o'quv qo'llanmasida: "Stilistika – fikrni ifodalash yo'llari, til vositalarini –materiallarini saylash haqidagi ta'limot – uslublari ilmi bo'lib, tilning vazifalariga mos ravishda bir necha vazifaviy uslublarga bo'linadi",- deb yozadi [33,90]. Ayni fikrga hamohanglik professor E.Qilichev va dotsent B.Qilichevlar tomonidan yozilgan "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" o'quv qo'llanmasida ham sezilib turadi. Ushbu kitob mualliflari "Uslubiyat fikr va emotsiyalarni bildirishda tilning turli vositalaridan saylab foydalanish yo'llarini o'rgatadi. Demak, uslub fikr va hodisalarni shunga mos vositalar orqali ifodalash yo'lidir" degan mulohazani bildiradilar [37,31].

Uslub til materiallarini nutqning mundarijasiga – mavzusiga, qaysi sohaga xosligiga, so'zlovchining maqsadiga, aytilayotgan fikrga, janriga qarab saylashning umumlashtirilish natijasidir. Masalan, ilmiy uslubda maxsus leksikaning qo'llanilishi, tarixiy romanlarda istorizm va arxaizmlarning ko'proq uchrashi, badiiy asarlarda poetik metaforalarning voqelanishi kabilar buning yorqin dalilidir. "Uslub tilning jamiyat ijtimoiy faoliyatining ma'lum tomoni bilan bog'langan o'ziga xos lug'ati, frazeologik birliklari, grammatik qurilmalari bilan nutqning xuddi shunday boshqa turlaridan o'z ichki xususiyatlari bilan tafovut

qilib turuvchi kenja sistemasidir” [33,90]. Bu uslub haqidagi so`nggi xulosa emas. Chunki uslubga berilgan ta`riflar xilma-xil va o`ziga xos.

Jumladan, akademik G`.Abdurahmonov “Hozirgi zamon o`zbek tilining adabiy uslubi haqida” maqolasida “Uslub – bu ma`lum so`z, so`z birikmasi yoki gapning (ko`proq frazeologiya, sodda gapning so`roq, buyruq, undov turlari, intonatsiya va morfologik kategoriyalar va boshqalar) badiiy bo`yoq olishi–tezkorligi, ta`sirchanligi, shaxsiy munosabat bildirishidir”, – deb ta`riflaydi [44,28]. Mazkur maqola shunisi bilan diqqatga sazovorki, unda “uslub – gapiruvchining, yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, xabarga, voqea-hodisaga, shaxs yoki predmetga shaxsiy yoki boshqa bir shaxs (yoki predmet)ning munosabati, jumladan, ifodalangan qo`shimcha subyektiv fikrdir” degan yana bir ta`rif o`z ifodasini topgan. Muhimi, bu ta`rif uslub to`g`risidagi ilmiy asoslarni to`ldiradi. Mashhur olimlar talqinida shakllangan bir qancha ta`riflar ham ushbu maqolada [44] o`z aksini topgan. Chunonchi, “Uslub filologiya fanining toji – tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining yuqori bosqichi (A.V.Stepanov), “har bir taraqqiy etgan tilning qalbi” (R.A.Budagov), “Uslub – bu talant” (V.G.Belinskiy).

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan anglashiladiki, adabiy tilning uslubi haqidagi ilmiy ta`riflar bu hodisaning serqirraligi bilan bog`liq. Zero, uslubni tor ma`noda tushunish uni “biror yozuvchi yoki shoirning yozish (ijod qilish) tarzini ifodalovchi hodisa”ga tenglashtirsa, (masalan, A.Qodiriy, A.Qahhorning uslubi buning yorqin dalili bo`la oladi), ushbu hodisani keng tushunish esa “uslub til ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan sistemasi” [37,33] degan umumlashmani keltirib chiqaradi.

O`z navbatida, uslub tilning asosiy vazifalari (fikir bildirish, ekspressivlikni ifodalash va boshqalar)ga mos ravishda bir qancha turlarga bo`linadi [33;35;37]. Shunga muvofiq, ular vazifaviy uslublar deb yuritiladi. Ayni paytda, vazifaviy uslublar deganda, tildan farq qiluvchi qandaydir alohida hodisa tushunilmaydi, balki shu aniq adabiy til tizimining ichida qaraladigan, o`ziga xos xususiyatlari,

xizmat qilish doirasi bilan bir-biridan farq qilib turadigan kichik tizim anglashilishi[33,90]ni qayd etish lozim. Zero, vazifaviy uslublar tarixan shakllangan adabiy tilning turli ko'rinishlari bo'lib, ular fikrni ifoda etish jarayonida nutq tuzilishining o'ziga xosligi bilan o'zaro tafovutlanadi.

Uslubiyatning katta bir tarmog'i hisoblanmish vazifaviy uslublar turli olimlar tomonidan har xil tasnif qilingan. Shunday bo'lsa ham, tadqiqotda ularning tasniflanishi bilan bog'liq masalaning tahlilini chetlab o'tib, lingvistik manbalarda qat'iylashgan va keng jamoatchilik orasida ommalashgan tasnifdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek tilida neytral uslubga oppozitiv holatda nutq uslublarining asosiy besh ko'rinishi mavjud:

- 1) so'zlashuv uslubi;
- 2) rasmiy uslub;
- 3) ilmiy uslub;
- 4) publitsistik uslub;
- 5) badiiy uslub [37;35;33;40].

Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi ikki asosiy turga ajratiladi:

- a) adabiy so'zlashuv uslubi;
- b) oddiy so'zlashuv uslubi.

Adabiy so'zlashuv uslubi tilning adabiy me'yorlariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi. U jargon va sheva elementlaridan xoli bo'ladi. Adabiy so'zlashuv uslubi jamiyat a'zolarining kundalik hayotida keng qo'llanadigan aloqa-aralashuv vositasi bo'lib, ommaviy axborot tarmoqlari, ta'lim sohasidagi ishlar shu uslubda olib boriladi. Qisqasi, adabiy so'zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining eng keng va universal turidir [33,14]. O'z navbatida, oddiy so'zlashuv uslubi uchun betakalluflik bilan erkin muomala qilish xarakterli xususiyatdir. Unda so'zlashuv nutqiga xos emotsionallik yaqqol sezilib turadi. Bu uslub nutqi g'ayri rasmiyligi, ekspressivligi, bayonning erkinligi va asosan, dialogik xarakterdaligi bilan izohlanadi [37,36]. So'zlashuv uslubida metaforik

soʻzlar, dialektizm, vulgarizm va frazeologik iboralar, shu bilan birga, toʻliqsiz gaplar, soʻz-gaplar, undov gaplar, ritorik soʻroq gaplar hamda bogʻlovchisiz qoʻshma gaplar koʻproq ishlatiladi.

“Oʻzbek tili stilistikasi” oʻquv qoʻllanmasida rasmiy uslub shunday tavsiflanadi: “Rasmiy yozishma va hujjatlar stili iqtisodiy, yuridik va diplomatik munosabatlarda davlat idoralari, sudlar, savdoga doir oʻzaro muomalalarda aloqa qilish uchun ishlatiladi” [35,20]. Shunga koʻra, bu stilda yuridik qonun moddalari, diplomatik murojaatnomalar, hukumat idoralarining qarorlari, instruksiyalar, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy eʼlon va xabarlar, yozishmalar va shu kabi hujjatlar yoziladi.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, fikrning sodda, qisqa, aniq ifoda etilishi rasmiy ish qogʻozlari uslubining asosiy talabidir. Mazkur uslubning xarakterli belgilari: u kitobiy uslubga kiradi, maʼmuriy idoraning ish usuliga mos, maxsus (qisqa, ixcham) standart shakli, turgʻun iboralar, qisqartma soʻzlar, maxsus sintaktik qurilmalarning “tayyor” qolipda boʻlishi bilan aloqa-arashuv uchun qulay keladi.

Ilmiy uslubda rasmiy uslubdan farqli oʻlaroq, tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalar aniq taʼriflanadi. Bu uslub ilmiy terminologiya bilan bevosita aloqador boʻlganligi uchun atamalar ilmiy uslubning leksekasini tashkil qiladi. Ilmiy uslubning grammatik qurilishi mantiqiy bogʻliqlikni, izchillikni, sintaktik aniqlikni talab etadi. Muhim jihati shundaki, ilmiy uslubda yozilgan asarlar, odatda, ilm-fanga oid maʼlumotlar berish bilan mutaxassislariga moʻljallangan boʻladi [37,34]. Obrazlilik (emotsionallik) kategoriyasi agar ilmiy uslubda “soʻngan, nursiz” holda koʻrinsa, badiiy adabiyotda esa “jonli” tarzda namoyon boʻladi. Masalan, “*uchar yulduz*”, “*somon yoʻli*” astronom uchun, avvalo, atama vazifasini oʻtaydi, yozuvchi uchun esa bu soʻz birikmalari oʻxshatish yoki obrazli ifoda manbai boʻlishi mumkin [35,25].

Shu bilan bir qatorda, ilmiy uslubda murakkab sintaktik butunliklar, yaʼni periodlar, kengaygan oborotlar va ergashgan qoʻshma gaplar koʻproq qoʻllaniladi.

Ammo bu vositalar mazkur uslubning o`ziga xos sintaktik xususiyatlarini to`la qamrab ololmaydi. Sababi, bu uslubga xos matnlarda to`liqsiz, vokativ, bir tarkibli gaplar deyarli qo`llanmaydi, bayon etilayotgan fikrlarning mantiqiy izchilligini ta`minlash maqsadida kirish so`z, kirish birikmalar, ya`ni kirish konstruksiyalar va qo`shimcha dalil keltirish uchun kiritmali gaplardan foydalaniladi.

2.2. Publitsistik uslubning o`ziga xos va farqli jihatlari.

Publitsistik uslub o`zbek adabiy tilining nutq uslublari sistemasida XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo bo`la boshladi. Vaqtli matbuot va nashriyotda hozirgi zamonning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag`ishlangan materiallarning keng yoritilishi, radio va televideniya orqali siyosat hamda ijtimoiy hayot masalalariga doir ma`ruza, suhbatlarning muntazam eshittirib borilishi kabi vositalar publitsistik uslubning taraqqiyotiga kuchli ta`sir o`tkazdi. Publitsistik uslub publitsistika bilan chamcharbas bog`liq. Shuning uchun publitsistika haqida ayrim mulohazalarga o`rin ajratish maqsadga muvofiqdir.

Publitsistika hayotni tasvirlashning alohida bir yo`li, usuli, ijod turidir. U jamiyat hayotining shu kundagi, ayni zamondagi bo`lib o`tgan ijtimoiy ahamiyatga molik voqea va hodisalarini aks ettirib ommaga yetkazadi, davrning eng dolzarb masalalariga munosabat bildiradi, hal etilishi kerak bo`lgan muammolarni ko`tarib chiqadi. Publitsistika zamon voqea-hodisalaridan kishilarni xabardor qilish, shu kun uchun zarur masala, muammolarni tahlil etish va ularning yechilishi borasida jamiyatga ta`sir ko`rsatish vositasi hamdir. Uning bosh vazifasi hayotdagi voqea va hodisalar, masala va muammolar haqida jamoatchilik fikrini uyg`otishdan iboratdir. Publitsistika asl ma`noda–aytilgan gap, yozilgan matn, ma`lum bir ko`rinishdagi asar bo`lib, u matbuot sahifalariga ko`chgan, radio, televideniye, internetdan o`rin olgan taqdirdagina g`oyaviy-siyosiy va ma`naviy kuchga aylanadi, ommaga yetib boradi. Garchi publitsistik ruh, ya`ni ayni zamon muammolarini ko`tarib chiqish va ayni zamon kishilariga yetkazib borish ijtimoiy hayotni aks ettirish ko`rinishlaridan bo`lmish badiiy adabiyotda va san`atning barcha turlarida mavjud bo`lsa-da, publitsistika keng va har taraflama ish ko`ra

oladigan maydon matbuotdir. Aslida, matbuot ham xuddi ana shu vazifani bajaradi, ya'ni jamiyat hayotini tasvirlaydi, tahlil etadi, unga o'z ta'sirini ko'rsatadi va o'zining ijtimoiy vazifasini publitsistika orqali amalga oshiradi. Bu esa matbuot bilan publitsistikaning o'zaro chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi, ya'ni matbuotsiz publitsistika va publitsistikasiz matbuot ish ko'rolmaydi.

Publitsistika insoniyatning hayotni bilish, uni idrok etish, olamda yuz berayotgan voqea va hodisalardan xabardor bo'lish va ulardan o'zi uchun tegishli xulosalar chiqarish vositasi sanaladi. Shu sababli u insonning hayotni kuzatish, tadqiq etish natijasi, tajribalaridan kelib chiqqan fanlar bilan hamda tashqi dunyoning estetik in'ikosi bo'lgan adabiyot va san'at, tilshunoslik fanlari bilan chambarchas bog'liqir. Publitsistika hayotdagi fakt va voqealarni qayd etish, ularni tadqiq etish, mohiyatini, ichki qonuniyatlarni ochishda fanga xos qator usul va imkoniyatlardan foydalanadi. Shuning uchun har qanday publitsistik asarda ma'lum darajada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy tadqiqot elementlari mavjud bo'ladi. Publitsistika dunyoni bilish va aks ettirishda asosan so'zdan, umuman, til vositalaridan foydalanganligi uchun u badiiy adabiyotga juda yaqin turadi va ba'zi o'rinlarda uning tarkibiy qismiga aylanadi. U badiiy adabiyotdan obraz va obrazlilik, syujet, kompozitsiya, konflikt, xarakter va boshqa zarur tasviriy elementlarni oladi. Bunday adabiy-badiiy elementlar publitsistik asarlarning ta'sirchanligini oshirish, hayotni jonli, qiziqarli tasvirlash uchun qo'llaniladi. Ammo publitsistikaning asosiy vazifasi shu kundagi ijtimoiy hayotni tezkorlik bilan, ixcham va ta'sirchan shaklda yoritib berishdan iborat bo'lganligi bois unda yuqoridagi adabiy-badiiy vositalardan faqat zarur o'rinlardagina, ma'lum darajada foydalaniladi.

Professor Yormat Tojiev publitsistik uslub xususida shunday mulohazani bildiradi: "Publitsistik uslubda qisqalik (lakonizm) markaziy o'rinlardan birini egallaydi, ya'ni qisqa, lo'nda, tushunarli, yorqin, ixcham tilda yozish asosiy talablardan hisoblanadi" [33,94].

Publitsistik nutq mantiqiy asosli bo`lishi bilan birga, jamoatchilikning fikri va yuragiga hissiy ta`sirli ham bo`lishi lozim [37;41]. “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari” qo`llanmasining mualliflari: “Bu uslubning xarakteriga ko`ra unda turli siyosiy atamalar, neologizmlar, professionalizmlar, so`zlashuv nutqiga xos elementlar (ozodlik, do`stlik, tenglik, sharaf v.h) uchraydi”,-deya ta`riflaydilar [37,35].

Ko`rib o`tilgan jihatlardan tashqari, antiteza va nutqda ohangdorlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi ritorik so`roq, ritorik murojaat, teng bog`lanishli va tobe tarkibli qo`shma gaplar, sintaktik parallelizmlarning ishlatilishi bu uslubni boshqalaridan ajratib turadi.

Vazifaviy uslublarning har bir turi ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasi uchun xizmat qilishi va amaliy faoliyatning muayyan doirasiga mansubligi bilan farqlanadi.

Ommaviy axborot vositalari uslubi publitsistik uslub sanaladi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta`sir qilish bo`lib, soddalik, tushunarlilik, ta`sirchalik, adabiy til me`yorlariga qat`iy amal qilishdir. Publitsistik uslubning ham og`zaki va yozma shakllari mavjud. Radio-televideeniye uslubi publitsistik uslubning og`zaki shakliga, gazeta, jurnal kabi matbuot nashrlari uslubi esa yozma shakliga xosdir.

Publitsistik uslub tashviqot-targ`ibot ishini olib borishda qo`llanadigan uslub bo`lib, matbuot uslubi ya`ni ommabop uslub deb ham yuritiladi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy atamalar, so`z va turg`un birikmalar ko`p qo`llanadi. Nutq ta`sirchan bo`lishi uchun emotsional kuchga ega bo`lgan so`z va so`z birikmalaridan, maqol va hikmatli so`zlardan keng foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo`laklari odatdagi tartibda bo`ladi, kesim buyruq va xabar maylidagi fe`l bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so`roq gap, yoyiq undalma, takroriy so`z va so`z birikmalari unumli qo`llanadi. Faqat bugina emas. Publitsistik uslubga xos xususiyatlar haqida mulohaza yuritar ekanmiz, dastavval, publitsistik asarlarda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar yoritilishini, hayotiy masalalar

mantiqiy mushohada asosida tushuntirilishi, dalil, asoslar bilan isbotlanishini unutmaslik kerak.

Muhim jihati shundaki, bu uslubda tinglovchilarning iroda va his-tuyg`usiga ta'sir qilish maqsadida tilning emotsional-ekspressivlik (hissiy ta'sirchanlik) hosil qiluvchi vositalari – anafora, epifora, epitet kabilar ishlatiladi. Hissiyotga boylik, ta'sirchanlik, nutqning tez tushunarli va esda qolarli bo`lishi, tilning rang-barang imkoniyatlari, xususan, badiiy til imkoniyatlaridan – obrazli ifodalar, tasviriy vositalardan foydalanish, tushunarli, yorqin, ixcham tilda yozish, bayonda qisqalikka intilish publitsistik uslub xarakterini belgilaydi. Aytish joizki, ravishdosh, sifatdosh oborotlar, fe'lning shart mayli shakllarining almashinib ishlatilishi, ritorik murojaat, undov, bir sostavli gaplarning qo`llanishi, nutq ko`pincha I shaxs tomonidan ifoda etilishi, ba'zi o`rinlarda “men” o`rnida “biz”ning ishlatilishi publitsistik nutq sintaksisiga xosdir.

Publitsistik nutqda ijtimoiy-siyosiy atamalar, turg`un til birliklari, baholash ma'noli so`zlar va doimiy epitetlar, tantanavor so`z va so`z birikmalarining qo`llanishi, yasovchi qo`shimchalar orqali ko`chma ma'no hosil qilinishi ham uslubiy xususiyatlar sirasiga kiradi.

Uslubiy maqsadni ko`zda tutib, butun ommaga murojaat qilish uchun so`roq gaplar, uyushiq bo`lakli gaplar, undov gaplar, kirish bo`lakli, kirish qurilmali gaplardan, shaxsi umumlashgan gaplar keng foydalaniladi. Shuningdek, og`zaki – so`zlashuv uslubiga hos bo`lgan elliptik gaplar, qurilmalardan ham o`rinli foydalaniladi.

Publististik uslubga asosan gazeta, jurnal, umuman, ommaviy axborot vositalari matnlari kirib, ularning mavzuiy doirasi juda keng va xilma-xildir. Bu vazifaviy uslub: a) mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayoti (bosh maqolalar, ichki siyosat, ma'ruza, nutq matnlari); b) chet el xabarlar (siyosiy va iqtisodiy mavzuga oid matnlar); v) iqtisod (sanoat, qishloq xo`jaligi, qurilish, transport, uy-joy, kommunal xo`jaligiga oid matnlar); g) fan va texnika (ilmiy yangiliklar, har xil sohalaridagi texnika yutuqlariga oid matnlar); d) madaniyat va san'at (teatr, kino

xabarlari, muzika va rassomchilik asarlariga taqrizlar va boshqalarga oid matnlar); e) reportaj, pamflet, ocherklarning matnlari; j) sport xabarlariga oid matnlardan iboratdir. Bunday matnlarning barchasida til vositalarining qo`llanishida ularning ijtimoiy xoslanish tamoyili yetakchi o`rin tutadi.

2.3.[O^{b.k.}~O^{e.k.}]=SB qolipi hosilalari va publitsistik nutq.

Ushbu bo`limda [O<sup>b.k.</sup>~O<sup>e.k.</sup>]=SB qolipi hosilalarining publitsistik nutqda voqelanishini tahlil qilish asosiy vazifadir. Shu o`rinda, sintaksis va publitsistikaning o`zaro aloqadorligi masalasiga alohida to`xtalish zarur. Chunki sintaksis publitsistik nutq uchun ham juda ahamiyatli bo`lib, sintaktik qurilmalar uning asosini tashkil etadi. Bunda publitsistik nutqning sintaktik xususiyatlari diqqat markazida turadi. Nutqda eng muhim aloqa vositasi gapdir. Chunki gapning qurilishi, uning mazmun-mundariyasi, ifoda maqsadi, tuzilishi va tashkil etuvchi qismlari ommabop nutq uchun xoslangan bo`ladi.

Publitsistik nutqda har bir so`z, so`z birikmasi yoki har bir jumla juda katta ahamiyat kasb etadi. Birgina sodda gapning o`zi muhim siyosiy yoxud ijtimoiy ma`no kasb etishi bilan publitsistik nutqni shakllantiradi. Shuning uchun publitsistik nutqning sintaktik tabiatini o`rganish va ishning maqsadi sifatida olingan [O<sup>b.k.</sup>~O<sup>e.k.</sup>]=SB qolipining nutqiy voqelanish imkoniyatlarini aniqlash uchun so`z birikmasi tanlab olindi.

Ta`kidlanganidek, bu bo`limda [tur-jins] ma`noli so`z birikmalari, ya`ni [O<sup>b.k.</sup>~O<sup>e.k.</sup>]=SB qolipi hosilalarining nutqiy voqelanish imkoniyatlarini aniqlash ko`zda tutilgan. Shuning uchun publitsistik uslubda qo`llangan [O<sup>b.k.</sup>~O<sup>e.k.</sup>] qurilmali birikmalar orqali sintaksis va publitsistikaning aloqadorligi masalasi ham e`tiborga olinadi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bab-baravar aholi soni, binobarin, ularning tilga bo`lgan ehtiyoji ham o`sib boraveradi. Bu ehtiyojlarni qondirish zarurati esa o`z navbatida tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi tabiatini, mohiyatini, vazifasini o`rganishni taqozo qiladi, nutq jarayonidagi iste`molda bo`lish xususiyatlarini

kuzatishni keltirib chiqaradi. Agar mana shu aytilganlarni boshqacharoq tarzda izohlash mumkin bo'lsa, til va nutq me'yorini o'rganish, tahlil qilish kuzatuvchilarning asosiy muddaosiga aylanib qoladi. Bunda ma'lum tilning iste'molchisi bo'lgan xalq, bu xalq yashagan va yashab kelayotgan tarixiy sharoit, uning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlarini singari qator omillarni ham e'tiborda saqlab turish lozim bo'ladi. Chunki inson faoliyatining muhim qismi sanalgan tilni va uning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini ana shunday qurshovda o'rganishgina atroflicha xulosalar chiqarishga ko'maklashadi. Shu bilan birga, til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda ana shu tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik aslo mumkin bo'lmaydi. O'z ona tili barcha o'ziga xosligi bilan shakllangan tili bo'lgani uchun ham u millat sanaladi. Shunday ekan, til tarixini, uning me'yoriy nuqtayi nazardan shakllanish jarayonini, ko'lamini millat tarixidan ajratib olib o'rganib bo'lmaydi.

Ana shu ma'noda me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Inson tafakkurining borliqni idrok etishi juda murakkab va uzoq davom etuvchi jarayon ekanligi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarining tilda tegishli atamalar bilan nomlanishi insonning fikrlash jarayonida ko'maklashishi barchamizga ayon. Bir xil predmet, narsa va hodisaning turli tillarda turlicha nom olishi esa tilning ijtimoiy-tarixiy-milliy hodisa ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bu nomlanishlarning har bir holatda o'ziga xos tarzda me'yor ekanligini ham ko'rsatib turadi.

Bundan tashqari, tildan foydalanishdagi tarixiy jarayon shuni isbotlaydiki, ma'lum bir tilda bir tushunchani ifoda etadigan so'z mavjud bo'lishi bilan birga uning boshqa bir tildan o'zlashtirilgan mustaqil varianti ham baravar ishlatilib kelinadi. Hatto davrlar o'tib, ular o'zaro sinonimik nozikliklardan ham judo bo'lib qolishi, bab-baravar lingvistik qiymatga ega bo'lishi mumkin. Bu holatni ham tildagi me'yoriy qonuniyat sifatida qabul qilishga majbur bo'lamiz.

Ana shunday qonuniyatlardan yana biri – nutqiy atov biliklarininng hosil bo`lishi, ya`ni so`zlar orasidagi birikuvchanlik qonuni asosida yuzaga chiquvchi so`z birikmalari ham mavjudki, bu nutqiy hosilalar ma`lum bir tushunchani ifoda etish vazifasiga ko`ra so`zlar kabi teng qiymatli hisoblanadi. So`z birikmalari boshqa lug`aviy birkilar singari nominativ birliklar tizimiga kiradi.

Ta`kidlash joizki, so`z birikmalari atash, nomlash vazifasi tufayli nominativ birliklar sirasida alohida o`rin egallaydi. Aniqroq aytadigan bo`lsak, so`z birikmalari atash, nomlash vazifasini nutqiy qo`llanishda namoyon etadi. Ma`lum bir nutqiy ehtiyojning tug`ilishi til tizimida tayyor lisoniy sintaktik qoliplarni harakatga keltiradi va bu qoliplarning voqelanishi natijasida so`z birikmalari yuzaga keladi. Demak, biz tahlil qilayotgan so`z birikmalari ham [tur-jins] munosabatini ifodalash vazifasini lisoniy ongda tayyor turgan $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipining nutqiy voqelanishi natijasida amalga oshiradi.

O`zbek tilida [tur-jins] munosabatini ifodalashga xizmat qiladigan so`z birikmalari $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipining nutqiy voqelanishidan yuzaga kelar ekan, bu qolipning publitsistik uslubda voqelanishidan qanday nutqiy hosilalar paydo bo`lishini va  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$  qolipining publitsistik nutqdagi hosilalari qanday ma`no xususiyatlariga egaligini aniqlash maqsadi tug`iladi. Ayni maqsad ushbu bob oldidagi vazifalarni belgilaydi. Shuning uchun tadqiqotning mazkur bobida  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$  qolipining publitsistik uslubda voqelanishini tasdiqlovchi nutqiy dalillar tahlil qilinadi. Shunga ko`ra, publitsistik nutqda voqelashgan $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipining quyidagi hosilalari tanlab olindi.

olingan nutqiy parchada **“Navro`z” bayrami, xalq san`ati, iste`mol mollari, oziq-ovqat mahsulotlari** birikmalari qo`llangan va birinchi hosila, ya`ni **“Navro`z” bayrami** bayramning ma`lum bir turini atash ma`nosini, ikinchisi – **xalq san`ati** san`atning muayyan turiga xoslikni, uchinchisi – **iste`mol mollari** mol(tovar, mahsulot)ning bir turiga xoslikni, to`rtinchisi – **oziq-ovqat mahsulotlari** mahsulotning ma`lum biri turiga xoslikni ifodalagan:

1. “**Navro`z**” **bayrami** kunida kitoblar, tasviriylar, san’at va **xalq san’ati** asarlari ko`rgazmasini, xalq **iste`mol mollari** va **ozig-ovqat mahsulotlari** savdosini tashkil etish ko`zda tutilgan [60,4].

Shuningdek, **o`zbek xalqi** birikmasi so`z birikmasi nafaqat publitsistik nutqda, balki ilmiy-ommabop nutqda ham qo`llanilishini qayd etish kerak. Nutqda voqelashgan ma`no birikmada etnik birlik –xalqning muayyan turi, ya`ni o`zbekka xoslik ifodayotgaligini ko`rsatadi:

2. **O`zbek xalqining** tabiatida va xarakterida charaqlagan quyoshli kunning ulushlari va ulgilari bor [62, 125].

**O`zbek xalqi** birikmasi haqida bildirilgan mulohazalar quyidagi parchada voqelashgan nutqiy hosilallarga ham aloqador bo`lib, tobe vaziyatda kelgan millat nomi kasb va mashg`ulotga xoslik ma`nosini belgilaydi. Shu o`rinda  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$  qolipining millat nomi ishtirokida tuzilgan birikmalari miqdoran ko`pligi va rang-barangligini, demak, qolip jinsning milliy xosligini ifodalovchi hosilalari tufayli mahsuldorligini ta`kidlash zarur. Chunki tanlangan nutqiy dalillar orasida jinsning milliy xosligini ifodalovchi hosilalar miqdori va variantlari bilan ajralib turadi. Bunga ishonch hosil qilish uchun quyida berilgan parchalardagi nutqiy hosilalar, ya`ni matnda voqelashgan **o`zbek adiblari, italyan shoiri, tatar xalqi** birikmalarini qiyoslash yetarli deb o`ylaymiz:

3. **O`zbek adiblari** boshlariga qanday ishlar tushgan bo`lmasin, aksaran va asosan hayotsevar bo`ladilar [62, 125].

4. Ulug` **italyan shoiri** Dantening ijodi insoniyatning kamolot sari tashlagan eng ulkan qadamlaridan biridir. [61, 49].

5. To`qay **tatar xalqining**gina emas, balki ayni o`zbeklarning ham suyuqli shoiri hisoblanadi [61, 58].

$[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipining publitsistik nutqda voqelanishini kuzatar ekanmiz, matbuot nashri, gazata va jurnallar va ularning nomini ifodalovchi hosilalar ko`proq qo`llanganligini ko`ramiz. Xususan, “**Oyna**” **jurnali**, “**Taraqqiy**”

gazetasi ham shulardan bir ko`rinish bo`lib, birikma orqali jurnal va uning nomi haqida aniq tushuncha ifodalanadi:

6. Bu jihatdan uning 1914-yilda yozgan va bobma-bob **“Oyna” jurnalida** bosilib chiqqan **“Sayohat xotiralari”** asari jida katta va o`lmas qimmatga egadir [62,42].

7. Shuning uchun ham **millatparvarlik g`oyalarining** kuchayishi, yoyilishi asosan, gazetalar bilan va ayniqsa, oltinchi yilda chiqqan ikki **“Taraqqiy” gazetasi** bilan chambarchas bog`liq [62,61].

Yevropa tilshunosligi, tarjima lug`ati, o`zbek lug`atchiligi, lug`atchilik masalasi birikmalari B.Mengliyev, B.Bahriddinovalarning **“Ma`rifat”** gazetasida (2013-yil 12 oktyabr, №82.8-9-sah.) e`lon qilingan **“O`quv lug`atlari”** nomli maqolasi matnida qo`llanganligini kuzatdik. Bu hosilalar muayyan fan, o`quv adabiyoti, fan tarmogi va masalaning turiga xoslik, ayni nutqiy qo`llanishda til sohasiga doir masala haqida tushunchalarni shakllantiradi:

8. Xususan, **o`zbek lug`atchiligining** keskin rivojlanish davri o`tgan asr boshlariga to`g`ri kelib, bunda rus tilshunoslarining ta`siri katta bo`lgan [59,8-9].

[O^{b.k.}~O^{e.k.}]=SB qolipi asosida shunday birikmalar hosil qilish mumkinki, bu hosilalarda muallifning individual nutqi, ijodkorlik tabiati o`z aksini topmay qolmaydi. Chunonchi, quyidagi nutqiy parchalar fikrimizni dalillaydi. Chunki bu matnlarda voqelashgan **xabarsizlik devorlari, millatdoshlik burchi, ojizlik falsafasi, adolatpeshalik yulduzi, jangovarlik yulduzi** kabi birikmalar ohorini sezmaslikning imkoni yo`q. Negaki, [O^{b.k.}~O^{e.k.}] qurilmali mazkur birikmalarda obrazlilik o`z maromiga yetgan va publitsistik nutqning estetik qirralarini bo`rttiruvchi ifoda vositalariga aylangan. Bu nutqiy hosilalar kundalik hayotimizda kuzatiladigan va nutqimizda o`zimiz hosil qilib odatlangan birikmalarga sira o`xshamaydi. Oddiy so`zlashuv yoki publitsistik nutqda qo`llanuvchi so`z va ifodalar bilan qiyoslanganda, **xabarsizlik devorlari, millatdoshlik burchi, ojizlik falsafasi, adolatpeshalik yulduzi, jangovarlik yulduzi** birikmalarida originallik, betakrorlik, hissiy ta`sirchanlik, jozibadorlik, falsafiy mushohada bo`rtib turadi.

Eng asosiysi, mazkur nutqiy hosilalarda publitsistik ruh ufurib turadi. Buni publitsistik nutqda obrazli ifodaga aylangan va tabiiyki, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipi mahsuli sifatida voqelashgan nutq parchalari yaqqol tasdiqlaydi.

O`sha paytda – asr boshida millatning eng yaxshi farzandlari millatning yo`lidan **xabarsizlik devorlari** va og`ir to`sqinlarini olib tashlash payiga tushganlar [62, 13].

9. Urf-odatlar uning hayotiga ma`no va mazmun kiritadi, urf-odatlarini to`liq ado etib, o`zini inson deb, insonlik, **millatdoshlik burchini** bajargan singari sezadi [62, 11].

10. **Ojizlik falsafasi** ular uchun yot edi [62, 47].

11. Jangovarlik, **adolatpeshalik yulduziga** jangovar, mard, o`ta odil so`zlarni aytishga jur`at etadi [62, 49].

12. Fitrat **jangovarlik yulduzi** bilan ta`bir o`rinli bo`lsa, o`tkir munozara olib boradi [62, 49].

Ta`kidlab o`tganimizdek, ishimizning ushbu bobida publitsistik nutqda qo`llaniluvchi  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$  qurilishli so`z birikmalarini tahlil qilish vazifasi kun tartibiga qo`yilgan. Shu bois publitsistik nutqning o`ndan ortiq ko`rinishlarida voqelashgan  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$  qurilmali so`z birikmalari ajratib olingan.

Tanlangan nutqiy parchalarda “**Navro`z**” **bayrami**, **xalq san`ati**, **iste`mol mollari**, **oziq-ovqat mahsulotlari**, **o`zbek xalqi**, **o`zbek adiblari**, **italyan shoiri**, **tatar xalqi**, “**Oyna**” **jurnali**, “**Taraqqiy**” **gazetasi**, **millatparvarlik g`oyalari**, **Yevropa tilshunosligi**, **tarjima lug`ati**, **o`zbek lug`atchiligi**, **lug`atchilik masalasi**, **xabarsizlik devorlari**, **millatdoshlik burchi**, **ojizlik falsafasi**, **adolatpeshalik yulduzi**, **jangovarlik yulduzi** kabi 20 xil umumiy [tur-jins] ma`noli birikma voqelashgan bo`lib, ular $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipining publitsistik nutqda voqelanishidan yuzaga kelganligini isbotlash o`rinsizdir. Chunki bu birikmalarning tobe vaziyatida reallashgan barcha so`zlar bosh kelishikdagi ot leksemalar sirasiga kiradi, hokim vaziyatdagi so`zlar ham ot leksemalardan tarkib topgan. Faqat hokim vaziyatdagi otlarning grammatik shakli, ya`ni egalik ko`rsatkichida ifodalanishi

ularni tobe vaziyatdagi otlardan farqlaydi va eng muhimi, sintaktik qolip mohiyatini belgilaydi. Demak, ajratib ko'rsatilgan hosilalarda $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipiga xos sintaktik qurilish mujassam va bu hosilalar $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipining ayni nutq uslubida voqelanganligidan dalolat beradi. Biroq ushbu bo'limda birkmalarning bu jihati birinchi planga qo'yilmagan.

Aksincha, biz kuzatgan publitsistik nutq parchalarida 20 xil birikmaning qo'llanishida yuzaga chiqqan ma'no xususiyatlari diqqat markazini egallab turibdi. Shunga ko'ra, 20 xil nutqiy hosila ma'no xususiyatlarini tavsiflash vazifasi muhim hisoblanadi. Buni ta'kidlash barobarida mazkur nutqiy hosilalarni ma'no xususiyatlari asosida guruhlarga ajratish 20 xildagi birikmaning har biriga tegishli xususiy ma'noni umumlashtirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Zero, mazkur birkmalarning yuqorida berilgan tavsifida $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ qurilmali birkmalarning xususiy ma'nolari izohlangan va ularning umumiy o'xshash jihatlari guruhlashga imkon beradi. Shunga muvofiq, publitsistik nutq materialida kuzatilgan $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ qurilmali 20 xil birikmani umumiy o'xshash jihatlari asosida ikki guruhga ajratish mumkin.

Chunonchi, birinchi guruh a'zolari umumiy [tur-jins] ma'no munosabatiga birlashuvchi xoslash ma'nosini ifodalaydi. Bu guruhga quyidagilarni kiritish mumkin: *xalq san'ati, iste'mol mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, o'zbek xalqi, o'zbek adiblari, italyan shoiri, tatar xalqi, millatparvarlik g'oyalari, tarjima lug'ati, o'zbek lug'atchiligi, lug'atchilik masalasi, xabarsizlik devorlari, millatdoshlik burchi, ojizlik falsafasi, adolatpeshalik yulduzi, jangovarlik yulduzi.*

O'z navbatida, ikkinchi guruh a'zolari umumiy [tur-jins] ma'no munosabati ostida birlashuvchi atash, nomlash ma'nosini ifodalaydi. Bu guruhni quyidagi so'z birkmalari tashkil etadi: *“Navro'z” bayrami, “Oyna” jurnali, “Taraqqiy” gazetasi, Yevropa tilshunosligi.*

Birinchi guruh a'zolari, ya'ni *xalq san'ati, iste'mol mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, o'zbek xalqi, o'zbek adiblari, italyan shoiri, tatar xalqi,*

*millatparvarlik g`oyalari, tarjima lug`ati, o`zbek lug`atchiligi, lug`atchilik masalasi, xabarsizlik devorlari, millatdoshlik burchi, ojizlik falsafasi, adolatpeshalik yulduzi, jangovarlik yulduzi* (va shu kabi) birikmalarda tobe bo`lak mavqeyidagi ot leksemalar (*xalq, iste`mol, oziq-ovqat, o`zbek, italyan, tatar, millatparvarlik, tarjima, lug`atchilik, xabarsizlik, millatdoshlik, ojizlik, adolatpeshalik, jangovarlik*) hokim bo`lak mavqeyidagi ot leksemalar (*san`ati, mollari, mahsulotlari, xalqi, adiblari, shoiri, g`oyalari, lug`ati, lug`atchiligi, masalasi, devorlari, burchi, falsafasi, yulduzi*) ifodalayotgan jins tushunchasining muayyan turga xosligini bildiradi. Shuning uchun bu guruhni tashkil etuvchi birikmalarda xoslash ma`nosi yetakchilik qiladi. Bu guruhdagi birikmalar xoslash ma`nosini bildirgan [$O^{b.k.} \sim O^{e.k.}$] qurilmali so`z birikmalari sanaladi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi birikmalar, *“Navro`z” bayrami, “Oyna” jurnali, “Taraqqiy” gazetasi, Yevropa tilshunosligi* kabi hosilalarda tobe bo`lak mavqeyidagi ot leksemalar (*“Navro`z”, “Oyna”, “Taraqqiy”, Yevropa*) hokim bo`lak mavqeyidagi ot leksemalar (*bayrami, jurnali, gazetasi, tilshunosligi*) ifodalayotgan jins tushunchasining muayyan turini nomlaydi, aniqrog`i, ma`lum jinsga tegishli tur nomini anglatadi. Shu bois mazkur guruhni tashkil etuvchi birikmalar atash, nomlash ma`nosini yuzaga chiqaradi va atash, nomlash ma`nosini bildirgan [$O^{b.k.} \sim O^{e.k.}$] qurilmali so`z birikmalari hisoblanadi.

Ayni paytda, har ikkala guruh a`zolari [tur-jins] ma`no munosabati mohiyatini saqlagan holda publitsistik nutqqa xos uslubiy qirralarni namoyon etadi. [Tur-jins] ma`no munosabatini ifodalovchi so`z birikmalarining publitsistik uslubga xos xususiyatlarini namoyon etishi, umuman, bunday so`z birikmalarining uslubiy qiymatini aniqlash masalasi alohida tadqiqotni talab qiladi. Shuning uchun [tur-jins] ma`no munosabatini ifodalovchi so`z birikmalarining publitsistik uslubga xos xususiyatlari va uslubiy qiymatini aniqlash masalasi bizning ishimizda atroflicha tahlil qilinmagan.

Publitsistik nutqda voqelashgan [$O^{b.k.} \sim O^{e.k.}$] qurilmali so`z birikmalarining ma`no xususiyatlari tahlili va [$O^{b.k.} \sim O^{e.k.}$]=SB qolipi hosilalarining publitsistik

nutqda qoʻllanilishi haqida aniq maʼlumot berish uchun jadvaldan foydalandik. Quyidagi jadval publitsistik nutqda voqelashgan va voqelasha oladigan [O^{b.k.} ~ O^{e.k.}] qurilmali soʻz birikmalarining maʼno xususiyatlari tahlilini toʻldirishga xizmat qiladi, deb oʻylaymiz.

[O^{b.k.}~O^{e.k.}]=SB qolipining publitsistik nutqdagi hosilalari:

№	Nutqiy hosilalar	maʼnosi
1.	<i>“Navroʻz” bayrami</i>	atash va nomlash
2.	<i>Xalq sanʼati</i>	xoslash
3.	<i>Isteʼmol mollari</i>	xoslash
4.	<i>Oziq-ovqat mahsulotlari</i>	xoslash
5.	<i>Oʻzbek xalqi</i>	xoslash
6.	<i>Oʻzbek adiblari</i>	xoslash
7.	<i>Italyan shoiri</i>	xoslash
8.	<i>Tatar xalqi</i>	xoslash
9.	<i>“Oyna” jurnali</i>	atash va nomlash
10.	<i>“Taraqqiy” gazetasi</i>	atash va nomlash
11.	<i>Millatparvarlik gʻoyalari</i>	xoslash
12.	<i>Yevropa tilshunosligi</i>	atash va nomlash
13.	<i>Tarjima lugʻati</i>	xoslash
14.	<i>Oʻzbek lugʻatchiligi</i>	xoslash
15.	<i>Lugʻatchilik masalasi</i>	xoslash
16.	<i>Xabarsizlik devorlari</i>	xoslash
17.	<i>Millatdoshlik burchi</i>	xoslash
18.	<i>Ojizlik falsafasi</i>	xoslash
19.	<i>Adolatpeshalik yulduzi,</i>	xoslash

20.	<i>Jangovarlik yulduzi</i>	xoslash
21.	<i>O`zbekiston Respublikasi</i>	atash va nomlash
22.	<i>Vazirlar mahkamasi</i>	xoslash
23.	<i>Tibbiyot akademiyasi</i>	xoslash
24.	<i>Fanlar akademiyasi</i>	xoslash
25.	<i>“Ma`rifat” gazetasi</i>	atash va nomlash
26.	<i>“Turkiston” gazetasi</i>	atash va nomlash
27.	<i>“Buxoronoma” gazetasi</i>	atash va nomlash
28.	<i>Musiqqa maktabi</i>	xoslash
29.	<i>Shaxmat maktabi</i>	xoslash
30.	<i>Buxoro shahri</i>	atash va nomlash
31.	<i>O`zbek tili</i>	xoslash
32.	<i>“Adolat” partiyasi</i>	atash va nomlash
33.	<i>Buxoro universiteti</i>	atash va nomlash
34.	<i>O`zbek adabiyoti</i>	xoslash
35.	<i>Realizm adabiyoti</i>	xoslash
36.	<i>San`at asari</i>	xoslash
37.	<i>Tarix muzeyi</i>	xoslash
38.	<i>Adabiyot muzeyi</i>	xoslash
39.	<i>Ta`lim muassasasi</i>	xoslash
40.	<i>Madaniyat xodimi</i>	xoslash
41.	<i>“Diyonat” romani</i>	atash va nomlash
42.	<i>“Mohiyat” ko`rsatuvi</i>	atash va nomlash
43.	<i>Pomir tog`i</i>	atash va nomlash
44.	<i>Orol dengizi</i>	atash va nomlash
45.	<i>Amir Temur xiyoboni</i>	atash va nomlash
46.	<i>Aksiyadorlik kompaniyasi</i>	xoslash
47.	<i>Savdo tarmog`i</i>	xoslash

48.	<i>Salomatlik maskani</i>	xoslash
49.	<i>Filologiya fakulteti</i>	xoslash
50.	<i>Beruniy bekati</i>	atash va nomlash
51.	<i>“Saodat” jurnali</i>	atash va nomlash
52.	<i>“Tafakkur” jurnali</i>	atash va nomlash
53.	<i>“Buxoro” kinoteatri</i>	atash va nomlash
54.	<i>Til bayrami</i>	atash va nomlash
55.	<i>Vijdon erkinligi</i>	xoslash
56.	<i>Soʻz erkinligi</i>	xoslash
57.	<i>Axborot vositalari</i>	xoslash
58.	<i>Goʻsht doʻkoni</i>	xoslash
59.	<i>Nokia telefoni</i>	atash va nomlash
60.	<i>Chorsu bozori</i>	atash va nomlash
61.	<i>Qiyot qishlogʻi</i>	atash va nomlash
62.	<i>Himolay choʻqqisi</i>	atash va nomlash
63.	<i>Nil daryosi</i>	atash va nomlash
64.	<i>Hind okeani</i>	atash va nomlash
65.	<i>YUNESKO tashkiloti</i>	atash va nomlash
66.	<i>Parlament soati</i>	xoslash
67.	<i>“Ziyonet” sayti</i>	atash va nomlash
68.	<i>“Yoshlar” kanali</i>	atash va nomlash
69.	<i>“Zakovat” klubi</i>	atash va nomlash
70.	<i>“Axborot” dasturi</i>	atash va nomlash
71.	<i>Shaxmat toʻgaragi</i>	xoslash
72.	<i>Kimyo fani</i>	xoslash
73.	<i>Fan oʻqituvchilari</i>	xoslash
74.	<i>Fan olimpiadasi</i>	xoslash
75.	<i>Jamoat tashkiloti</i>	xoslash

76.	<i>Respublika anjumani</i>	xoslash
77.	<i>Respublika seminari</i>	xoslash
78.	<i>Mendeleyev olimpiadasi</i>	atash va nomlash
79.	<i>Mehnat bozori</i>	xoslash
80.	<i>Qo`l to`pi</i>	xoslash
81.	<i>Jahon chempionati</i>	xoslash
82.	<i>Suv sporti</i>	xoslash
83.	<i>Jang san`ati</i>	xoslash
84.	<i>Stol tennisi</i>	xoslash
85.	<i>“Yer” kuni</i>	atash va nomlash
86.	<i>“Ma`naviyat” kuni</i>	atash va nomlash
87.	<i>Davra suhbatlari</i>	xoslash
88.	<i>Xayriya fondi</i>	xoslash
89.	<i>Xayriya marafoni</i>	xoslash
90.	<i>Sut mahsulotlari</i>	xoslash
91.	<i>Meros huquqi</i>	xoslash
92.	<i>Fuqarolik jamiyati</i>	xoslash
93.	<i>Sud hokimiyati</i>	xoslash
94.	<i>Qonunchilik palatasi</i>	xoslash
95.	<i>Fuqarolik pasporti</i>	xoslash
96.	<i>“Oila” kodeksi</i>	xoslash
97.	<i>Obodonchilik masalasi</i>	xoslash
98.	<i>O`zbek modeli</i>	xoslash
99.	<i>Mehnat daftarchasi</i>	xoslash
100.	<i>Tinchlik siyosati</i>	xoslash

Jadvaldan ko`rinib turibdiki,  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$  qolipi hosilalari publitsistik nutqda voqelanganda atash va nomlash, xoslash kabi ma`no xususiyatlarini ifodalaydi. Bu hosilalarning har birida o`ziga xos nutqiy ma`no yuzaga chiqqan

bo'lsa ham, nutqiy hosilalarning hammasida [tur-jins] ma'no munosabati yorqin ifodalangan bo'ladi.

Bob bo'yicha xulosalar:

Ushbu bobda publitsistik nutqda qo'llaniluvchi $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ qurilishli so'z birikmalari tahlil qilindi. Publitsistik nutqning o'ndan ortiq ko'rinishlarida voqelashgan $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ qurilmali so'z birikmalari ajratib olindi. Nutqiy parchalarda kuzatilgan 20 xil umumiy [tur-jins] ma'noli birikma $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipining voqelanishidan yuzaga kelganligi aniqlandi. Bu so'z birikmalarida tobe vaziyatni bosh kelishikdagi ot leksemalar, hokim vaziyatni egalik shaklidagi ot leksemalar egallagan. Demak, tahlil qilingan nutqiy hosilalarda $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipiga xos sintaktik qurilish mujassam va ular $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipining publitsistik nutq uslubida voqelanganligidan dalolat beradi.

Publitsistik nutq materialida kuzatilgan 20 xil birikmaning ma'no xususiyatlarini o'rganish natijasida $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ qurilmali hosilalar umumiy o'xshash jihatlari asosida ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruh a'zolari umumiy [tur-jins] ma'no munosabatiga birlashuvchi xoslash ma'nosini, ikkinchi guruh a'zolari esa [tur-jins] umumiy ma'no munosabatiga tegishli atash, nomlash ma'nosini ifodalaydi. Asosiysi, har ikkala guruh a'zolari umumiy [tur-jins] ma'no munosabati mohiyatini saqlagan holda publitsistik nutqqa xos uslubiy qirralarni namoyon etadi.

UMUMIY XULOSA

Malakaviy-bitiruv ishida “[Tur-jins] ma’noli soʻz birikmalari va publitsistik nutq” mavzusi bilan bogʻliq masalalar tahlil qilindi va uning natijasi quyidagi umumiy xulosalarda ifodalangan:

1. Oʻzbek tilida [tur-jins] munosabati nafaqat leksik birliklar, balki sintaktik birliklar orqali ifodalanadi. Demak, tilimizda [tur-jins] munosabatining sintaktik ifodalanish usuli mavjud boʻlib, [tur-jins] ma’noli soʻz birikmalari tilimizda gipo-giperonimik munosabatning sintaktik ifodalanish usulini belgilaydi.

2. Oʻzbek tilida [tur-jins] munosabatini ifodalovchi soʻz birikmalari $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ lisoniy-sintaktik qolipi hosilalaridir. $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipi tilning lisoniy sintaktik sathida [tur-jins] ma’noli soʻz birikmalarining lisoniy qurilishi va gipo-giperonimik munosabatning sintaktik ifodalanish usulini umumlashtiruvchi lisoniy birlik mavqeyida turadi.

3. [Tur-jins] munosabatini bildiruvchi soʻz birikmalari bosh kelishikdagi ot leksemalarning egalik shaklidagi ot leksemalarga ikki yoqlama bogʻlanishi asosida vujudga keladi. Soʻzlarning bunday bogʻlanish tarzi va birikish usuli $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = [tur-jins]$ SB qolipida ixchamgina ifodalanib, uning lisoniy mohiyatini belgilaydi.

4. [Tur-jins] munosabati soʻz birikmalarida ifodalanganda, tobe boʻlak mavqeyida reallashadigan bosh kelishikdagi ot leksemalar hokim boʻlak mavqeyida keladigan egalik shaklidagi ot leksemalarning “nomi” yoki turini bildiradi, egalik shaklli ot leksemalar esa “jins” ma’nosini anglatadi.

5. Kuzatishlar $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ qurilmali soʻz birikmalari publitsistik nutqda behad koʻp qoʻllanilishini koʻrsatdi. Jadvaldagi yuz xil soʻz birikmasi bunga dalil boʻla oladi. Ma’lum boʻldiki, umumiy [tur-jins] munosabati mujassamlashgan $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ qurilmali birikmalar publitsistik nutqda ikki xil –xoslash va atash, nomlash ma’nolarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

6. Publitsistik nutqda voqelashgan $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]$ qurilmali birikmalarning ma’no xususiyatlarini oʻrganish natijasida bu birikmalar umumiy semantik

o`xshashlik belgisiga ko`ra ikki guruhga ajratildi. Bular: “xoslash ma’nosini ifodalovchi birikmalar” guruhi hamda “atash, nomlash ma’nosini ifodalovchi birikmalar” guruhi.

7. Har ikkala guruhga tegishli so`z birikmalari umumiy [tur-jins] ma’no munosabatiga birlashuvchi ikki xil ma’no xususiyatini publitsistik nutqda alohida-alohida voqelantiradi. Shunisi muhimki,  $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$  qolipining barcha nutqiy voqelanishlarida umumiy [tur-jins] ma’nosi o`zgarmaydi.

8. Tahlil qilingan nutqiy hosilalardagi betakroklik, hissiy ta’sirchanlik, ijtimoiy hayot umumlashmasi, publitsistik ruh [tur-jins] ma’noli so`z birikmalari publitsistik nutqqa xos estetik qirralarni bo`rttira olishini va eng asosiysi, publitsistik nutqning ifoda vositalariga aylanish imkoniyatiga egaligini yaqqol tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. Каримов Ислон. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.-176 б.
2. Каримов Ислон. Баркамол авлод орзуси. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000.
3. Каримов Ислон. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. –Т.: Ўзбекистон, 1999.
4. Каримов Ислон. Адабиётга эътибор маънавиятга, келажакка эътибор // Ўз АС, 2009 йил 3 июль.

II. Ilmiy risola, darslik va o`quv qo`llanmalari:

5. Абдуллаев Ф. Сўзлар ўзаро қандай боғланади? –Т.: Фан, 1978. -75 б.
6. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. –Т.: Фан, 1995. - 278 б.
7. Абдурахмонов Ғ., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1979. - 208 б.
8. Abuzalova M., Nazarova S. Sistem tilshunoslik asoslari. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2010.-96 b.
9. Баскаков Н.А., Содиков А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. – Т.: Ўқитувчи, 1979. - 192 б.
10. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш.-Т. Фан, 1995-132 бет.
11. Боровков А.К., Ғуломов А., Маъмуров З., Шермухаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. II қисм. Синтаксис.–Т.: Ўздавнашр, 1956.-132 б.
12. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Т.: Фан, 1983. - 151 б.
13. Винокур Г.О. О языке художественной литературы.–М.: ”Высшая школа”,1991.- 448с.
14. Засорина А.Н. Введение в структурную лингвистику. –М.: Высшая школа,1974.-319 с.
15. Комилова Х. Гапда сўзларнинг боғланиши. –Т.: Фан , 1955.- 27 б.

- 16.Кодухов В.И. Общее языкознание. – М.: Высшая школа, 1974.-178 с.
- 17.Колшанский Г.В. Логика и структура языка. – М.: Высшая школа, 1965. -240 с.
- 18.Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Т.: Маънавият, 1999. - 64 б.
- 19.Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995. - 232 б.
- 20.Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. – Қарши: Насаф, 2003.-192 б.
- 21.Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Т.: Ўқитувчи, 1978. - 256 б.
- 22.Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Т.: Ўқитувчи, 1993. - 32 б.
- 23.Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.–Т.: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.
- 24.Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Т.: Университет, 1999.
- 25.Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология.–Т.:Шарқ, 2001.-164 б.
- 26.Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т.:Фан, 1982.- 100 б.
- 27.Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики.– М.,1986.
- 28.Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Т.: Фан, 1989.
- 29.Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. – Т.: Маънавият, 2003. - 112 б.
- 30.Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатларнинг турлари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. - 48 б.
31. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M.,

- Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya, 2009.- 414 b.
- 32.Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование.—М: Наука, 1971.- 294 с.
- 33.Тожиев Ё., Ҳасанова Н., Саидова Р., Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари амалиёти. – Т.: 1994.-115 б.
- 34.Шарипов М. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмаси синтаксиси масаласи. – Т.: Фан, 1978. - 88 б.
- 35.Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983. - 248 б.
- 36.Ўзбек тили грамматикаси. II том. –Т.: Фан, 1976. - 560 б.
- 37.Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Бухоро: "Бухоро университети", 2002. - 114 б.
- 38.Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. –Т.: Фан, 1982. - 87 б.
- 39.Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (содда гап синтаксиси учун материаллар). –Т.: Ўз МУ босмахонаси, 2002. - 117 б.
- 40.Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1992. - 160 б.
- 41.Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. –Т.: Фан, 1977. - 168 б.
- 42.Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1987. - 256 б.
- 43.Лингвистический энциклопедический словарь. –М.:Сов. энциклопедия, 1990.-685 с.

III. Ilmiy jurnaldagi maqolalar:

- 44.Абдурахмонов Ғ. Ҳозирги замон ўзбек тилининг адабий услуби ҳақида // "Ўзбек тили ва адабиёти" 1992. 5-6-сон, 28-36-б.

- 45.Маҳмудов Н. Мустақил давлатнинг муқаддас тимсоли //“Ўзбек тили ва адабиёти ”, 2009. 5-сон, 3-9-б.
- 46.Маҳмудов Н. Кесимнинг гапдаги мақоми (ёки тилнинг систем-структур талқинларида мунтазамлик ва мутаносиблик эҳтиёжи) //“Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009.1-сон, 44-56-б.
- 47.Назарова С. Сўз бирикмаларининг формал-функционал таҳлил муаммолари // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2002. 6-сон, 55-57-б.
- 48.Назарова С. [Жинс-тур] муносабатини билдирган сўз бирикмалари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2004. 3-сон, 69-71-б.
- 49.Неъматов Ҳ. Ўзбек тилшунослигида формал, структурал ва субтанциал йўналишлар хусусида // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009. 4-сон, 35-41-б.
- 50.Расулов Р. Сўз валентлиги ва синтактик алоқа //“Ўзбек тили ва адабиёти”, 1990.5/6-сон, 36-40-б.
- 51.Қурбонова М., Очилова М., Рахимов А. Ўзбек тилшунослигида синтактик назариялар //"Айюб Гулом ва ўзбек тилшунослиги" (илмий тўплам).—Т.: 2004, 73-76-б.

IV. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari:

- 52.Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. Номзодл. диссер. ... автореф. - Т., 1994, - 21 б.
- 53.Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. Номзодл. диссер. ... автореф. —Т., 1994, - 25 б.
- 54.Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари.Номзодл. диссер. ...автореф.—Т.,1996.-19 б.
- 55.Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар. Докторл. диссер. ...автореф.—Т., 2002.- 46 б.
- 56.Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари. Номзодл. диссер. ...автореф.—Т., 1997. - 21 б.

57. Нигматова Л. Ўзбек тилида привативлик. Номзодл. диссер. ... автореф. –Т., 2004. - 18 б.
58. Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини. Докторл. диссер. ... автореф. –Т., 2001.-51б.

V. Publitsistik asarlar:

59. Менглиев Б., Баҳриддинова Б. Ўқув луғатлари// “Маърифат” газетаси, 2013 йил 12 октябрь, №82. 8-9-саҳифалар.
60. Наврўзи олам бугун// Мақолалар тўплами (тузувчи: Ш.Миралимов). –Т.: Ўзбекистон, 1989.-96 б.
61. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. – Т.: Ёш гвардия, 1988.- 224 б.
62. Ғафуров Иброҳим. Мангу латофат. –Т.: Шарқ, 2008.- 464 б.

VI. Internet saytlari:

63. www.ziyonet.net- tilshunoslik
64. www.ziyouz.uz
65. www.google.uz.com
66. www.yandex.com
67. www.Arxiv.uz
68. www.onatili.uz

MUNDARIJA

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.....	3
I bob. [Tur-jins] munosabati va soʻz birikmalari.....	7
1.1. [Tur-jins] munosabatining soʻz birikmalarida ifodalanishi.....	15
1.2.[Tur-jins] maʼnoli soʻz birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilishi.....	19
II bob. [O ^{b.k.} ~O ^{e.k.}]=SB qolipining publitsistik nutqda qoʻllanilishi.....	30
2.1. Oʻzbek adabiy tilining vazifaviy uslublari toʻgʻrisida.....	32
2.2.Publitsistik uslubning oʻziga xos va farqli jihatlari.....	37
2.3.[O ^{b.k.} ~O ^{e.k.}]=SB qolipi hosilalari va publitsistik nutq.....	41
Umumiy xulosa	54
Foydalanilgan adabiyotlar	56